

# MUQADDAS KITOB

# HIKOYALARI

MATN VA RASMLAR MUALLIFI – MARTA RORER



Hikoyalarda bo'yash uchun rasmlar

## **MINNATDORCHILIK**

Bizga O'z so'zini bergen Egamizga hamdu-sanolar bo'lsin!

Muqaddas Kitob haqiqatlari bilan bo'lishgan o'qituvchilarga, yozuvchi va hizmatchilarga muallif nomidan chuqur minnadorchiligidan bildiramiz. Muallifning oilasiga – alohida rahmat!

Ushbu darslarni nashr uchun tayyorlashga rozilik bildirib, yordam bergen va qatnashgan barcha birodarlarimizni qadrlaymiz!

- Muharrirlar

Muqaddas Kitob hikoyalarini har doim barcha bolalariga o'qib bergen, onamga bag'ishlanadi.

- Muallif



## **OTA-ONALARGA MUROJAAT**

Bolalar hikoyalar aytib berishlarini yoki o'qib berishlarini yaxshi ko'radilar. Ushbu hikoyalar Muqaddas Kitobga kirish sifatida xizmat qiladi, Ibtidodan boshlanib va Vahiy bilan tugaydi.

Hikoyalarni yozishda biz ularni Muqaddas kitobdagidek saqlab qolishga harakat qildik. Muqaddas Kitobdagagi ko'plab personajlar qahramon bo'lmasalar-da, Xudo ularga imoni tufayli yordam berdi. Xudoning va'dalari bugungi kunda ham haqiqatdir. Itoatkorlik baraka beradi, itoatsizlik esa hukmga olib keladi. Uning barchamizga bo'lgan sevgisi ajoyib: u solihlar ustidan ham fosiqlar ustidan ham birdek O'z yomg'irini yog'diradi.

Hikoyalar qisqa va sodda tarzda yozilgan, ammo o'qib berayotganingizda Muqaddas Kitobdan batafsil tushintirib berishingiz mumkin.

Yaxshi hikoyalar sizning farzandizngizni dunyo qarashini kengaytirishga yordam beradi. Hikoyaning asosi bo'lgan Muqaddas Kitobning matnga e'tibor bering. Samimiyl imon, Xudoga bo'lgan minnatdorchilik va o'z qalbingizda yashaydigan Xudoning tirik so'zi bilan farzandingizning imonini mustahkamlang.

Hikoyalarni suhbat ohangida o'qing, noaniqliklar, kutish, javob berish sahnalarida pauza qiling, hikoyaning mavzusiga qarab tez yoki asta-sekinlik bilan o'qing, tabiiyki yuz ifodalari va imoshoralardan foydalaning - bu voqeani jonlantirishga va kichik tinglovchilar uchun hikoyani jonli va hayajonli bo'lishiga yordam beradi.

Muqaddas Kitob hikoyalarini o'qiyotganda bolaning e'tibori va qobiliyatini rivojlantirishni, to'g'ri xulosalar qilishni o'rganishini hohlaymiz. Lekin eng muhimi, biz bolada Xudoga bo'lgan sevgi va Uning so'zlariga bo'lgan qiziqish o'sishini hohlaymiz.

### **"MUQADDAS KITOB HIKOYALARI" VA "MUQADDAS KITOB RASMLARI" DAN QANDAY FOYDALANISH KERAK?**

Bola Jim o'tirishni va tinglashni o'rganishi kerak, ota-onalardan biri unga Muqaddas Kitob hikoyasini o'qib bersin. Bolaga rasmlarni bo'yashga berishdan oldin, o'qilgan hikoya haqida savollar bering va rasmga tegishli bo'lgan voqeani birga muhokama qiling.

Har bir hikoyadan keyin bir nechta savollar berilgan, lekin biz ota-onalarga voqeani batafsilroq muhokama qilishni maslahat beramiz, o'z savollaringizni ham qo'shing. Agar kerak bo'lsa, bolaga yordam berish uchun hikoyaning alohida qismlarini qayta o'qing va javoblarni toping. "Kim", "nima", "qachon", "qayerda", "nima uchun" va "qanday qilib" so'zлari bilan boshlanadigan savollar bolaning dunyoqarashini kengaytirishga va so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Bola har bir rasmda kim yoki nima tasvirlanganligini tushuntirishni o'rganish kerak.

Muqaddas Kitob oyatini kun davomida o'rganishi va takrorlashi mumkin. Takrorlash-bu ta'limotning boshidir.

“Xalq Yoshuaga shunday dedi:  
— Egamiz Xudoga xizmat qilamiz, Unga quloq solamiz”.  
(Yoshua 24:24)

“Kaloming, ey Egam, to abaddir,  
U samolarda mustahkam turadi”.  
(Zabur 118:89)

“O, naqadar sevaman qonuningni!  
Kun bo'yi xayolimda tutaman uni”.  
(Zabur 118:97)

“...Egamizning so'zlarini o'rama qog'ozdan o'qib berasan...”  
(Yeremiyo 36:6)

## MUNDARIJA

### ESKI AHD

1. MUQADDAS KITOB - XUDONING TUHFASI
2. DUNYONING YARALISHI
3. GUNOHNING KIRIB KELISHI.
4. QOBIL VA HOBIL
5. NUH VA TO'FON
6. IBROHIMNING IMONI
7. LUTNING TANLOVI
8. ISHQNI QURBONLIKKA OLIB KELINISHI
9. YOQUB VA ESOV
10. YUSUF
11. YUSUFNING YUKSALISHI
12. AYUB
13. SAVATDAGI CHAQALOQ MUSO
14. MUSO O'Z XALQINING YO'L BOSHCHISI
15. XUDO XALQINING SAYOHATI
16. YOSHUA
17. GIDO'N
18. SHIMSHO'N
19. RUTNING NAIMAGA BO'LGAN SEVGISI
20. SHOMUILNING YOSHLIGI
21. SHOUL-BIRINCHI SHOH
22. CHO'PON DOVUD
23. DOVUD SHOH TAXTIDA
24. SULAYMON TOMONIDAN MA'BAD QURILISHI
25. IKKI SHOH
26. ILYOS-XUDONING ODAMI
27. XUDO SHOH AXABNI JAZOLAYDI
28. ILYOSNING KO'TARILISHI
29. ELISHAYNING XIZMATI
30. YUNUSNING CHAQIRUVI
31. XUDOGA ITOATKOR IKKI SHOH

32. YEREMIYO PAYG'AMBAR VA VOIZ

33. TO'RT SODIQ INSON

34. DONIYOR IMONINING SINOVİ

35. QIROLICHA ESTER VA UNING XALQI

36. XUDONING XALQINI QAYTISHI

### YANGI AHD

37. IKKI CHAQALOQ

38. BAYTLAHM YULDUZI

39. MA'BADDAGI ISO

40. ISO XIZMATINING BOSHLANISHI

41. SHOGIRDLARNING TANLANISHI

42. SHOLNING SOG'AYISHI

43. HOVUZ YONIDAGI MO'JIZA

44. ISO BO'RONNI TINCHLANTIRADI

45. YAIRNING QIZI

46. SHOGIRDLAR IMONINING SINALISHI

47. MEHRIBON SAMARIYALIK

48. MARIYA, MARTA VA LAZAR

49. XUDO HAR BIR INSONNI SEVADI

50. O'N MOXOV

51. ISO BOLALARNI DUO QILADI

52. ZAKKAYNING ISO BILAN UCHRASHUVI

53. OXIRGI KECHLIK

54. ISONING XOCHDAGI O'LIMI

55. ISONING OSMONGA QAYTISHI

56. BUTRUS ODAMLARGA SHIFO BERADI

57. BUTRUSNING MO'JIZAVIY OZOD BO'LISHI

58. PAVLUSNING VA'ZLARI VA SAYOHATLARI

59. PAVLUSNING MAKUBLARI

60. SAMODAGI BAXTLI UYIMIZ



## 1. MUQADDAS KITOB - XUDONING TUHFASI

2 Butrus 1:20, 21

Xudo bizga Muqaddas Kitobni berganidan xursandmiz. Biz uni **Xudoning So'zi** deb ataymiz, chunki biz u orqali Xudo bizdan nima xohlashini bilib olamiz.

Xudo - bizning **Yaratuvchimizdir**, biz buni bilishimizni xohlaydi. U qanday qilib to'g'ri ishlar qilishimiz va Unga qanday sajda qilishimiz kerakligini bilishimizni xohlaydi. Xudo bizni osmon va o'limdan keyn nima kutayotganini bilishimizni xohlaydi. O'limdan so'ng U bilan osmonda yashashimiz mumkinligini bilishimizni xohlaydi. Muqaddas Kitobda aytiganlarning hammasiqat.

Xudo ko'p narsalarni bilishimizni istaydi, lekin inson hamma narsani eslab qololmaydi. Shuning uchun muqaddas insonlarga Uning amrlarini yozishni buyurdi. Bu odamlar Xudoning amrlarini tingladi va faqat U aytganlarini yozishti.

Ular yozgan so'zlar Muqaddas Kitobni tashkil qiladi. Endi biz uni har kuni o'qishimiz va o'rganishimiz mumkin. **Xudo Uning Kalomiga itoat qilishimizni istaydi**.

Ko'p yillar oldin, kitoblar bizning hozirgi kitobimizga o'xshamas edi.

Ularni odamlar o'qishlari uchun, o'ramlar shaklida qo'lда yozilgan. O'ramlar uzun-uzun pergament yoki qog'oz varag'idan bo'lib, tayoq atrofida o'ralgan edi.

Ba'zida Xudoning xalqi **Kalomga zid** ishlarni qilishgan. Ular Muqaddas Kalom haqida eshitishni ham xohlamadilar.

Keyin Xudo hamma odamlar Kalomni eshitishi va itoat etishi uchun, ularni jazoladi.

Bugun ota-onamiz bizga Muqaddas Kitob hikoyalarini o'qib berishidan xursandmiz. Biz uyda va jamoatda Xudoning so'zlarini jimgina eshitishni xohlaymiz. Biz Xudo haqida ko'proq bilishni va Unga **itoat** qilishni xohlaymiz.

Muqaddas Kitob haqida kuylashimiz ham mumkin. Mana siz uchun kichik bir qo'shiq.

### SAVOL JAVOB:


1. Muqaddas Kitobni bizga kim bergen?  
(Muqaddas Kitobni bizga Xudo bergen.)
2. Muqaddas Kitob bizga nima haqida gapiradi?  
(Xudoning ishlari haqida.)
3. Hursandchilik bilan Xudoning Kalomini tinglashimiz kerakmi?  
(Ha, biz hursandchilik bilan Xudoning Kalomini tinglashimiz kerak)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Sening kaloming haqiqatdir." (Yuhanno 17:17)

## 2. DUNYONING YARALISHI

*Ibtido 1,2*



Qadimda, ko'p yillar avval, bunday go'zal olam, odamlar yo'q edi. Yer yuzini zulmat qoplagan edi.

Xudo osmonda edi. U yer va osmonni yaratishga qaror qildi. Bularning barchasini yo'qdan bor qildi. U hamma narsani **olti kunda** yaratdi.

Xudo amr qildi va bu so'zdagi barchasi paydo bo'ldi. U: "Yorug'lik bo'lsin," - dedi va yorug'lik paydo bo'ldi. Xudo yorug'likni kun, qorong'ulikni esa tun deb atadi. Bu birinchi kuni sodir bo'ldi.

Ertasi kuni Xudo bir so'z bilan go'zal moviy osmonni, osmonda esa oppoq bulutlarni yaratdi.

Uchinchi kun esa suvlarga bir joyga yig'ilishni buyurdi. Shunday qilib daryolar, dengizlar va okeanlar orasida quruq yer hosil bo'ldi. Ammo yerda hech narsa o'smas edi. Shunung uchun Xudo o'simliklarni yaratdi.

Yashil o'tlar, chiroyli gullar, mevali daraxtlar va har xil o'simliklar o'sib chiqdi. **Hammasi yaxshi** edi, lekin Xudo O'z ishini tugatmagan edi.

Keyingi kuni Uning amri bilan musaffo osmonda quyosh charaqladi. Kechasi esa oy va yulduzlar porladi. Yer va osmon kechayu kunduz go'zal edi.

Beshinchi kuni Xudo baliq va qushlarni yaratdi. Ulkan nahanglar va mayda oltin baliqlar suvda suzishni boshladi. Atrofda ulkan qushlardan tortib mayda qushlargacha uchib yurardi. Boyqushlar, tovuslar, **kaptarlar paydo bo'ldi**.

Nihoyat, oltinchi kuni, Xudo hayvonlarni yaratdi. Katta kulrang fillar va kichik hayvonlar paydo bo'ldi. Turli xil hayvonlar juda ko'p edi, lekin hali odam yo'q edi.

Shunday qilib, Xudo yerdan bir oz tuproq olib, odamni yaratdi. Uning burun teshigidan puflab, jon ato etdi. Xudo insonga **Odam Ato** deb nom berdi. U odamga yordamchi kerakligini bilar edi. Keyin Xudo Odamni uxlatib, uning bir qovurg'asidan olib, unga yordamchi bo'lish uchun ayolni yaratdi.

Xudo yaratgan hamma narsaga qaradi. Hamma narsa **ajoyib** edi. Yettinchi kuni Xudo dam oldi. U go'zal dunyoning yaratilishini tugatdi.

### SAVOL JAVOB:


1. Xudo amr qilganda nima sodir bo'ldi?  
(Nimani amr qilgan bo'lsa, paydo bo'ldi)
2. Tunda yorug'lik bo'lishi uchun Xudo nimani yaratdi?  
(Tunda yoritib turishi uchun Xudo oy va yulduzlarni yaratdi)
3. Xudo tuproqdan nimani yaratdi?  
(Xudo tuproqdan Odam Atoni yaratdi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Xudo azalda osmon bilan yerni yaratdi" (Ibtido 1:1).

### 3. GUNOHNING KIRIB KELISHI.

*Ibtido 2,3*



Xudo ajoyib bog' barpo qilib va unga Adan deb nom berdi. Adandan bir daryo oqib kelib bog'ni sug'orardi. Odam Ato va Momo Havo shu ajoyib bog'da yashar edilar. Xudo ularga bog'ni parvarish qilinglar deb amr qildi. Ular bog'da hamma narsadan yeyishlari mumkin edi. Ammo bog'ning o'rtasida bir daraxt bo'lib, Xudo ularga: "Bu daraxtning mevalaridan yemanglar, aks holda o'lasizlar," - degan edi. Odam Ato va Momo Havo juda baxtli edilar. Ular Xudoni sevardilar. Kunning shabbodasida bog'da sayr qilib Xudo bilan **suhbatlashishar** va undagi o'simliklarga g'amxo'rlik qilib, mevalardan yerdilar. Ular Xudo xohlagan hamma narsani qilishdi.

Ammo bir kuni juda achinarli voqeа yuz berdi. Shayton ilon qiyofasida paydo bo'lib, Momo Havo bilan suhbatlashdi. U so'radi: "Xudo haqiqatan ham jannatdagi hech bir daraxtning mevasidan yemanglar deb aytdimi?"

Momo Havo javob berdi: "Hamma daraxtning mevasidan yeyishimiz mumkin, faqat bittasidan tashqari. Agar biz uning mevasidan yesak yoki unga tegsak, unda o'lasizlar, deb aytgan Egamiz. Shunda Shayton Momo Havoga yolg'on gapirdi: "Siz o'lmysiz, ammo Xudo biladi, agar shu daraxtdan yesangiz, unda siz donolikka ega bo'lib yaxshilik va yomonlik nima ekanligini bilib olasiz".

Momo Havo **daraxtga** diqqat bilan qaradi. Mevalar juda chiroyli edi va u dono bo'lishni xohladi. Shunday qilib, u mevalardan birini uzib yedi. Keyin Odam Atoga ham bir oz oz berdi, u ham yedi.

Odam Ato va Momo Havo Xudoga itoatsizlik qilib, Uning irodasiga qarshi chiqishdi. Endi ular o'zlarini juda yomon his qildilar va Xudo bilan gaplashishdan qo'rqdilar. Keyin ular jannat daraxtlari orasiga yashirindilar.

Lekin Xudo ularning qayerdaligini bilardi. Parvardigor Egamiz kelib ular bilan gaplashdi va ulardan nima qilishganini so'radi. Ularni **jazolash** kerak edi. "Endi non yeyish uchun og'ir mehnat qilasizlar, og'riq va g'am nimaligini bilasizlar va bir kun kelib o'lasizlar," - dedi Xudo ularga.

Shunday qilib, Odam Ato va Momo Havo Xudoning ajoyib yeriga gunohni olib qirishdi. Lekin Xudo ularni hali ham sevardi. Egamiz ular uchun hayvonlar terisidan kiyim berdi va **ularni kiyintirdi**. Xudo ularga ajoyib bir va'da berdi, shunday kun keladiki, sizlarga Najotkorni yuboraman va U barcha gunohlaringizni yuvadi.

#### SAVOL JAVOB:

Ajoyib bog'da kim yashagan edi?

(Odam Ato va Momo Havo ajoyib bog'da yashardilar)

Odam Ato va Momo Havoni kim aldadi?

(Odam Ato va Momo Havoni shayton ilon ko'rinishida aldadi)

Odam Ato va Momo Havo itoatsizlik qilganidan Xudo xursand bo'ldimi?

(Yo'q, Xudo ularni jazolashga majbur bo'ldi)

#### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Biz insonga emas, Xudoga itoat etishimiz lozim" (Havoriylar 5:29)

#### 4. QOBIL VA HOBIL

*Ibtido 4,5*



Xudo Odam Ato bilan Momo Havoga **o'g'il farzand** berdi. Ular unga Qobil deb ism qo'yishdi. Momo Havo baxtli edi. Biroz vaqt o'tgach Qobilning ukasi dunyoga keldi, uning ismi Hobil edi. Qobil ulg'ayib dehqon bo'ldi. U yerga ishlov berib, hosillarni parvarish qilar va yetilganda yig'ib olar edi.

Hobil ulg'aygach esa, qo'ychivon bo'ldi va ularni har kuni boqib, sug'orardi.

Bir kuni Qobil va Hobil Xudoga nazrlar olib kelishdi: Qobil Xudoga o'z dalalaridagi **hosildan** olib keldi, Hobil esa suruvidagi eng yaxshi **qo'ylaridan** birini nazr qildi.

Xudoga Hobilning nazri manzur bo'ldi, lekin Qobilning nazri Unga yoqmaydi. Bundan Qobilning jahli chiqdi.

Xudo Qobilga: "Agar menga itoat etsang, nazringni qabul qilaman", - dedi.

Lekin Qobil **Xudoga itoat qilmadi**. Unda Hobilga nisbatan nafrat paydo bo'ldi.

Bir kuni ular dalada yurganlarida, Qobil juda g'azablanib, ukasi Hobilni o'ldirdi.

Bir oz vaqt o'tgach, Xudo Qobildan: "Ukang Hobil qayerda?", - deb so'radi.

Qobil yolg'on gapirdi. U Xudoga: "Men bilmayman. Ukam qayerga borsa, men uning qadamini o'lchab yurishim kerakmi?" - deb e'tiroz bildirdi.

Qobil nima qilganini **Xudo bilardi**. Shunda Egamiz dedi: "Ukang vafot etdi. Chunki sen uni o'ldirning, sening jazoying og'ir bo'ladi. Yerga qanchalik jon kuydirib ishlov bermagin, yer sen uchun boshqa mo'l hosil yetishtirmas. Hozirdan boshlab sen yer yuzida doimo bir joydan boshqa joyga qochib, boshpanasiz daydib yurasan".

Endi Qobilning na uyi, na hosili bor edi. U shikoyat qildi: "Mening jazom juda og'ir.

Meni ko'rgan odam o'ldirmoqchi bo'ladi".

Shunda Xudo:

-Yo'q, hech kim seni o'ldirmaydi, seni o'ldirganni **jazolayman**, - deb javob berdi.

Xudo Hobilning o'rniga Odam Ato va Momo Havoga yana bir o'g'il berdi.

Ular bu chaqaloqqa Shis deb ism qo'yishdi.

Odam Ato juda uzoq umr ko'rdi. U to'qqiz yuz o'ttiz yil yashab olamdan o'tdi. Uning ko'p farzandlari bor edi. Xudo Odam Ato va Momo Havoni hamda ularning bolalarini yer yuzida **barakaladi**.

#### SAVOL JAVOB:


1. Ulg'aygach Hobil nima ish qildi?  
(Hobil qoychivon bo'ldi)
2. Bolalarning qay biri Xudoga itoatsizlik qildi?  
(Qobil Xudoga itoatsizlik qildi)
3. Hobil qanday vafot etdi?  
(Hobilni akasi Qobil o'ldirdi)

#### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Bir biringizni seving" (Yuhanno 15:12)

## 5. NUH VA TO'FON

*Ibtido 6-9*



Yillar o'tgani sari yer yuzida insonlar ko'payib borardi. Lekin ko'plari juda yomon bo'lib ketgan edi. Ular kundan kunga ko'p gunoh ishlar qilishdi.

Xudo insoniyatni yaratganidan afsuslandi va dedi: "Men barcha **yovuz** odamlarni jazolayman".

Ammo Nuh ismli bir kishi Xudoni sevardj, shuning uchun Xudo Nuh va uning oilasini qutqarishga qaror qildi.

Xudo Nuhga dedi: "Yer yuzidan insoniyatni qirib tashlayman, sen ulkan bir kema qur, chunki men yer yuziga to'fon yubormoqchiman. Barcha yomon odamlar o'ladi va Sen va sening oilang kemada **xavfsizlikda bo'lasizlar**. Qushlar va hayvonlarni har bir turidan juft juft qilib o'zing bilan kemaga ol. Shu bilan birga oilang va hayvonlrga uzoq vaqtga yetadigan yegulik ol".

Nuh **Xudoga ishondi** va shuning uchun hamma narsani xuddi U aytganday qildi. Nuh va uning uch o'g'liga ulkan kemani qurish uchun ko'p yillar kerak bo'ldi. Kemani qurib bo'lishgach, oziq-ovqatlar olib kirishdi.

Qushlar va hayvonlar ham kemaga kirdilar. Ba'zi hayvonlar ikki juft bo'lib, ba'zilari esa yetti juft bo'lib kemaga kirdilar, chunki Xudo shunday amr qilgan edi. Nuhning oilasi va hamma hayvonlar kemaga kirib bo'lishgach, **Xudo eshikni yopdi**.

Sekin asta yomg'ir yog'a boshladi va to'htovsiz qirq kechayu qirq kunduz yog'di.

Tog' cho'qqilarini qoplaguncha suv sadhi ko'tarilib boraverdi.

Hamma yomon odamlar cho'kib ketishdi. Faqat Nuhning oilasi kemada xavfsizlikda edi.

Kunlardan o'tib suv pasaya boshladi va nihoyat yerda quruqlik paydo bo'ldi. Nuh va uning oilasi hamda barcha hayvonlar kemadan chiqishdi.

Nuh qurbongoh qurib, **Xudoga sajda qildi**. Parvardigor Egamiz Nuhga va'da berdi: "Men boshqa hech qachon odamlarni qirib tashlash uchun yerga to'fon yubormayman".

Xudo osmonda go'zal kamalak yaratdi va Nuhga dedi: "Har safar osmonda kamalakni ko'rganingizda, mening bergen va'damni eslashingni istayman". Xudo O'z va'dasini bajardi.

### SAVOL JAVOB:

1. Kim Xudoni sevar edi?  
(Nuh Xudoni sevar edi)
2. Xudo Nuhga nima yasashni buyurdi?  
(Xudo Nuhga kema yasashni buyurdi)
3. Xudo osmonda nima yaratdi?  
(Xudo osmonda kamalakni yaratdi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Imoni tufayli Nuh...kema qurdi" (Ibroniylar 11:7)

## 6. IBROHIMNING IMONI

*Ibtido 10-20*



To'fondan so'ng Nuhning o'g'llari farzandli bo'ldilar va yer yuzida yana odamlar ko'payib bordi. Ularning hammasi **bir hil tilda** so'zlashardilar. Ulardan ko'plari Xudoga sajda qilmadilar.

Kunlardan bir kuni ular shunday deyishdi: "Kelinglar, o'zimiz uchun shahar quraylik, shahar minirasining cho'qqilari osmonga tegib tursin. Biz buyuk insonlar ekanligimizni hamma bilsin".

Qurilish ishlarini boshlab yuborishdi. Ammo **Xudo bundan norozi edi**. U shunday qildiki, odamlar turli hil tillarda gapira boshladilar va bir birlarini tushunmay qoldilar. Minoraning qurilish ishlari to'xtab qoldi va odamlar turli joylarga tarqab ketdi.

Shundan bir qancha vaqt o'tgach, Xudo Ibrom ismli bir kishiga shunday dedi: "Men ko'rsatgan yurtga borishingni hohlayman. Sening oilangni barakalayman, **butun yer yuzida nomingni ulug' qilaman**, sen orqali yer yuzidagi jamiki xalqlar baraka topadi. Bir kun kelib sening naslingdan Najotkor dunyoga keladi".

Ibrom Xudoga ishondi. U oilasini olib Xudo aytganidek, Kan'on yurtiga ko'chib o'tdi. Ular bilan Ibromning jiyani Lut ham bordi. Kan'on yurtida Ibrom qurbongoh qurib, Xudoga sajda qildi. Xudo Ibromga va'da berdi: "Men bu yerni sening avlodining beraman". Bu yer juda yaxshi edi va shu yurtda Xudo Ibromga baraka berdi.

Ammo Ibrom va uning xotinida farzand yo'q edi. shuning uchun u Xudodan oilasini marhamatlashini so'rardi. Xudo Ibromga: "Tunda osmonga qara. Sen barcha yulduzlarni sanay olasizmi? **Sening nasling ham shu yulduzlarday ko'p bo'ladi**".

Ibrom allaqachon keksayib qolgan edi, Xudo Ibromning ismini Ibrohimga o'zgartirdi. Ibrohimning xotinini ismi esa Sora bo'ldi. Xudo yana Ibrohimga ko'p baraka berdi.

Bu vaqt davomida Ibrohim farzandsiz bo'lishiga qaramay Xudoga ishondi.

Va nihoyat Xudo Ibrohim va Soraga o'g'il farzandli bo'lasizlar, deb aytdi.

**Xudo va'dasini bajardi**. Ibrohim yuz yoshga kirganda uning o'g'li Ishoq dunyoga keldi. Bu voqeа Ibrohim va Sorani juda xursand qildi. Ular Ishoqga juda yaxshi g'amxo'rlik qilishdi va unga Xudoni sevish hamda Unga sajda qilishni o'rgatdilar.

### SAVOL JAVOB:

1. Kim Ibrohimga ota-bolalari yurtidan ko'chib o'tishni ytdi?

(Xudo Ibrohimga ko'chib o'tishni aytdi)

2. Kim Xudoning barcha va'dalariga ishondi?

(Ibrohim Xudoning barcha va'dalariga ishondi)

3. Ibrohim keksayib qolganda kim dunyoga keldi?


(Ibrohim keksayib qolganda Ishoq dunyoga keldi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Ibrohim Xudoga ishondi". (Rimliklar 4:3)

## 7. LUTNING TANLOVI

*Ibtido 13-19*



Ibrohim jiyani Lut bilan Kan'on yurtiga ko'chib o'tdi. Ibrohimning ham, Lutning ham qo'ylari, qoramollari va chodirlari ko'p edi. Ularning xizmatkorlari bor edi, ular ko'plab hayvonlarga **g'amxo'rlik** qilishardi. Ammo ba'zida xizmatkorlar bir-birlari bilan janjallahishardi, chunki ularga barcha hayvonlari uchun yashil yaylovlar va toza suv yetarli emas edi.

Ibrohim odamlarga yordam berishni xohladi. U Lutga shunday dedi: "Bizda juda ko'p yer bor va men cho'ponlarimiz janjallahshib, **jang qilishlarini xohlamayman**. Sen o'zing xohlagan yerkarni tanlashing mumkin, men esa hayvonlarim va odamlarimni boshqa yerkarga olib boraman."

Keyin Lut ko'zlarini ko'plab yerkarga qaratdi. U tepalikdagi adrlarga borishni xohlamadi. Unga daryo yaqinidagi yashil yaylovlar yoqdi va Lut o'zi uchun eng **yaxshi yaylovlarni** tanlab oldi. U ko'chib o'tdi va ikkita o'ta shafqatsiz, axloqsiz shahar yaqinida yashay boshladi.

Lut Ibrohimdan ajralganidan so'ng, Xudo Ibrohimga: "Atrofingizga qara. Men bu yerkarning barchasini senga va sening avlodlaringa beraman."

**Ibrohim xudoga ishondi.** U yangi yaylovlarga ko'chib o'tdi, u yerda qurbongoh qurdi va Xudoga sajda qildi.

Lut, garchi eng yaxshi yerni egallab olgan bo'lsa-da, uning va oilasining farovonlik ko'rmadi.

Lut oilasini to'g'ridan-to'g'ri axloqsiz shaharlardan biriga ko'chirdi. Bir kuni dushmanlar u yerga kelib, Lut va boshqa odamlarni asirga olishdi. Ibrohim yana **mehribonlik** qildi va o'z odamlari bilan Lutni va boshqa odamlarni dushmanlar qo'lidan ozod qildi.

Ikki shaharda yashovchi odamlar juda yovuz va axloqsiz edilar. Shuning uchun Xudo bu shaharlarni **olov** bilan yo'q qilishini aytdi. Xudo Lut va uning oilasiga shaharni tark etishlarini aytish uchun ikkita farishtani yubordi. Ammo Lut ketmadi. Oxir-oqibat, farishtalar Lutni, uning xotinini va ikki qizini shahardan olib chiqib: "Tezda toqqa chiqing. Orqaga qaramang," - dedilar. Ammo Lutning rafiqasi ortiga qaradi va **tuz ustuniga aylaib qoldi**.

Lut Ibrohim kabi Xudoni sevmagani uchun juda ko'p muammolarga duch keldi. Lut har doim ham Xudoga itoat qilmadi. Ibrohim baxtli edi. U Xudoga sajda qildi va unga bo'ysundi. Ibrohim tinchlikparvar edi.

### SAVOL JAVOB:


1. Kimning suruvi ko'p edi?  
(Ibrohimning ham Lutning ham suruvi ko'p edi)
2. Kim o'ziga yaxshi yaylovlarni tanlab oldi?  
(Lut o'ziga yaxshi yaylovlarni tanlab oldi)
3. Kim har doim qayerga bormasin Xudoga itoat qildi?  
(Ibrohim doim Xudoga itoat qildi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Tinchlik o'rnatuvchilar baxtlidir" (Matto 5:9).

## 8. ISHOQNI QURBONLIKKA OLIB KELINISHI

Ibtido 22



Ibrohim va Soraning **sevimli** o'g'li Ishoq o'sib ulg'aydi. Ota-onasi uni juda yaxshi ko'rishardi.

Xudo Ibrohimning Ishoqni qanchalik sevishini ko'rdi va uni sinab ko'rishga qaror qildi. U Ibrohimga juda qiyin sinov yubordi. Xudo: "O'g'lingni olib, tog'ga olib bor. Uni qurbongohga qo'y va menga qurbanlik qil," - deb buyurdi.

Ibrohim Xudo aytgan hamma narsani bajarishni xohladi. Shunday qilib, u erta tongda o'rnidan turdi, Ishoq va ikkita yosh yigitni o'zi bilan olib ketdi. Ular Xudo Ibrohimga **ko'rsatgan joyga borishdi**. Uch kunlik safardan so'ng, Ibrohim uzoqdan tog'ni ko'rdi.

Ibrohim ikki yosh yigitga: "Bu yerda qoling va kuting. Biz sizga qaytamiz," - dedi.

Keyin Ishoq o'tinni oldi, Ibrohim esa olov va pichoqni oldi, keyin ikkalasi birga ketishdi.

Yo'lida Ishoq so'radi: "Ota, bizda **olv va o'tin bor**, lekin biz Xudoga qurbanlik qiladigan qo'zi qayerda?

Ibrohim o'g'liga muloyimlik bilan javob berdi: O'g'lim, Xudo kuydiriladigan **qo'zini o'zi beradi**".

Ishoq otasi Ibrohimga ishondi va u bilan xotirjam ketdi. Ibrohim belgilangan joyga kelib, qurbongoh qurib, ustiga o'tin qo'ydi. Keyin u yagona o'g'li Ishoqni o'tinning tepasida qo'ydi va uni o'ldirish uchun qo'liga pichoq oldi.

Va to'satdan, bu vaqtda Rabbiyning farishtasi osmondan gapirdi: "Ibrohim! Ibrohim!"

Ibrohim javob berdi: "Men shu yerdaman".

Farishta: "O'g'linga **zarar yetkazma**. Endi aminmanki, sen Xudodan qo'rqasan, chunki Xudo so'raganda o'g'lingni berishga tayyor eding".

Ibrohim orqasiga qaradi. Shoxlar bilan o'rالgan butalar ichida qo'y turardi. Ibrohim qo'yni olib, o'g'lining o'rniga Xudoga qurban qildi.

Keyin Farishta yana Ibrohimni chaqirdi. U shunday dedi: "Xudo sen va farzandlaringa mo'l-ko'l **baraka beradi**, shuningdek, boshqalar ham Xudoni sevgani va itoat qilgani uchun baraka topadi".

Ibrohim qanchalik baxtli edi! U Xudoga ishondi va uning va'dalariga ishondi. Ibrohim Xudoni hammadan ko'proq yaxshi ko'rardi.

### SAVOL JAVOB:

1. Ibrohim o'zining yagona o'g'lini yaxshi ko'rarmidi?  
(Ha, Ibrohim o'zning yagona o'g'lini yaxshi ko'rardi)
2. Ibrohim o'zining yagona o'g'lini o'ldirdimi?  
(Yo'q, Ibrohim o'zining yagona o'g'lini o'ldirmadi)
3. Ibrohim hammadan ko'proq kimni yaxshi ko'rardi?  
(Ibrohim hammadan ko'proq Xudoni yaxshi ko'rardi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Seni sevaman, ey Egam" (Zabur 17:2)

## 9. YOQUB VA ESOV

*Ibtido 24-33*



Ishoq voyaga yetgach, Ibrohim xizmatkorini o'g'li uchun munosib xotin topib kelishga yubordi. Xizmatkor **ibodat qildi** va Xudo unga Ishoqning rafiqasi bo'lgan Rivqoni topishga yordam berdi. Ishoq Rivqoni yaxshi ko'rib qoldi.

Xudo Ishoq va Rivqoga egizak o'g'il farzandlar berdi. Esov katta, Yoqub esa kichik o'g'il edi.

Esov yovvoyi hayvonlarni ovlashni yaxshi ko'rardи, Yoqub esa chodirlar yonida ishlarga yordam berishni yaxshi ko'rardи.

Ishoqning ko'plab hayvonlari bo'lib, ular yaylovlarda o'tlab, **quduqlaridan** suv ichishardi. Boshqa odamlar Ishoqning quduqlaridan hayvonlarini sug'orish uchun foydalanmoqchi bo'lganlarida, u boshqa joyga ko'chib o'tdi va yangi quduqlarni qazib oldi. Ishoq hech kim bilan **janjallahshmasdi**. U otasi Ibrohim singari tinchlikparvar bo'lishni xohlardi. Xudo Ishoq va uning bolalariga Ibrohimni barakalaganiday sizlarni ham barakalayman deb **va'da berdi**.

Ko'p yillar o'tgach Ishoq ancha qarib qoldi va o'lishdan oldin Esovni duo qolib baraka bermoqchi bo'ldi. U Esovdan unga mazali pishirilgan **hayvon go'shtini** olib kelishini so'radi. Shunda Ishoq Esovni duo qilmoqchi edi.

Rivqo esa Ishoqni Yoqubni duo qilishni xohladi, Esov ovda bo'lgan payt, u Yoqubni otasiga olib borishi uchun ozgina hayvon go'shtidan ovqat tayyorladi. Ishoqning allaqachon ko'zлari zaiflashib qolgan edi, shuning uchun Yoqub unga go'sht olib kelganini **sezmadи**. Esov uyga kelishidan oldin Ishoq Yoqubni duo qildi.

Bu voqeа Esovni shunchalik xafa qildi va g'azablantirdiki, u: "Otam o'lsa, men Yoqubni o'ldiraman", dedi.

Shundan so'ng, Yoqub o'ziga yaxshi xotin topishi uchun jo'natib yuborishdi. Bir kuni kechasi Yoqub uxbab yotganida, u baland bir **zinapoyani** tushida ko'rди. U yerdan osmonga qadar ko'tarilgandi. Farishtalar bu zinapoyadan yuqoriga va pastga tushib chiqishardi. Eng yuqori qismida esa Xudo o'tirar edi, U Yoqubga: "Men sen bilanman va sening naslinga baraka beraman. Men senga bu yerkarni mulk qilib beraman," - dedi.

Yoqub uyg'onib, Xudoga sajda qildi va unga itoat etishga va'da berdi. Keyin Yoqub amakisi Lobonning uyiga qarab yurishni davom ettirdi. U yerda Yoqub uylandi, oila qurdi.

Yoqub o'z oilasi, otasi va akasi Esovga oldiga kelguniga qadar juda ko'p yillar o'tdi, lekin akasi endi undan **g'azablanmasdi**. Xudo va'dasini bajardi. Xudo Yoqub bilan birga bo'lib, unga baraka berdi.

### SAVOL JAVOB:

1. Ishoqning rafiqasini ismi nima edi?  
(Ishoqning rafiqasini ismi Rivqo edi)
2. Ishoqning egizak o'g'llarini ismlari nima edi?  
(Ishoqning egizak o'g'llarini ismlari Esov va Yoqub edi)
3. Kim zinapoya va farishtalar haqidagi tush ko'rdi?  
(Zinapoya va farishtalar haqidagi Yoqub tush ko'rdi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Bir-biringizga nisbatan ko'ngilchan va mehr-shafqatli bo'linglar" (Efesliklar 4:32).

## 10. YUSUF

Ibtido 37



Yoqubning o'n ikki o'g'li bor edi, lekin Yusufni boshqa o'g'illardan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rardi. Yoqub Yusufga chiroyli **beqasam cho'pon** olib berdi. Shu sababli, katta aka-ukalar Yusufdan nafratlanishdi.

Bir kuni Yusuf akalariga: "Men bir tush ko'rdim, dalada ishlayotganimizda, mening bug'doy bog'lammim o'rnidan turdi va sizning bog'lamlaringiz mening bog'lamimga **ta'zim** qildi," - deb aytib berdi. Yusufning akalari unga ta'zim qilishni xohlamasdilar. Ular undan yanada ko'proq nafratlana boshlashdi.

Biroz vaqt o'tgach, Yusuf yana tush ko'rdi va u yana akalari va otasiga aytib berdi: "Bu safar quyosh, oy va o'n bir yulduz menga ta'zim qilishdi". Uning akalari bu haqda eshitishni ham xohlamaadilar, lekin otasi bu tushlar bir kun kelib amalga oshishi mumkinligini haqida o'yadi.

Bir kuni Yoqub Yusufga: "Katta akalaringning oldiga bor. Ulardan xabar olib, keyin **qaytib** kelib va menga ayt," - dedi.

Yusuf otasiga itoat qilib yo'lga tushdi. Uning akalari uydan uzoqda qo'y boqishardi va Yusuf ularni uzoq vaqt izladi. Yusufning ularga qarab yurib kelayotganini ko'rib, aka-ukalar jahl bilan qaror qilishdi: "Ana bu yerga tush ko'ruvchi kelyapti. Keling, uni **o'ldiraylik**". Ammo eng katta akasi Ruben: "Uni o'ldirishning hojati yo'q. Uni chuqur sardobaga tashlaylik," - dedi. Aka-uka bo'limgan payt Ruben Yusufni qutqarib, uni uyiga jo'natmoqchi edi. Ular shunday qilishdi.

Akalari Yusufning kiyimlarini yechishdi. Ular uni chuqur **sardobaga** tashladilar. Shundan keyin ular ovqatlanib o'tirishgan edi, uzoqdan shu tomonga kelayotgan tuyalar karvonini ko'rib qolishdi. Bu odamlar juda ko'p turli xil narsalarni sotib olib va sotishardi. Yahudoda bir fikr paydo bo'ldi. U: "Keling, Yusufni bu odamlarga sotaylik," - dedi. Akalari Yusufdan shunchalik nafratlanishardiki, uning taqdiri qanday bo'lishiga befarq edilar. Shundan keyin ular Yusufni **yigirma kumush tangaga** sotdilar.

Bu vaqtda Ruben ular bilan birga emasdi. U qaytib kelgach, juda xafa bo'ldi. Akalari Yusufning choponini qonga botirib, otasiga olib kelishdi. Ular: "Mana, biz buni topib oldik," - deyishdi. Otasi achchiq yig'lab yubordi va yovvoyi hayvon o'g'li Yusufni yeb ketgan, deb o'yadi. Yoqubning qayg'usi cheksiz edi.

Bu vaqtda esa Yusufni **tobora uzoqroqqa** olib ketishardi. Ammo Xudo Yusuf bilan birga edi va unga g'amxo'rlik qildi.

### SAVOL JAVOB:


1. Tushlari haqida kim gapirdi?  
(Yusuf tushlari haqida gapirdi)
2. Yovvoyi hayvon Yusufni yeb ketganmidi?  
(Yo'q, Yusufni yovvoyi hayvon yemadi)
3. Yusuf qaytib kelmaganidan kimning qayg'usi cheksiz edi?  
(Yusufning otasi Yoqubni qayg'usi cheksiz edi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"U hamisha sizlarga g'amxo'rlik qiladi" (1 Butrus 5:7).

## 11. YUSUFNING YUKSALISHI

*Ibtido 39-46*



Yusufni sotib olgan odamlar uni **Misr yurtiga** olib kelishdi. U yerda bir boy odamga sotib yuborishti. Yusuf juda yaxshi ishchi edi, lekin o'sha boy odamning xotini Yusufga tuhmat qildi. U kishi xotiniga ishonib, Yusufni qamoqqa tashladi. Ammo qamoqxonada ham Yusuf yaxshi ishchi edi. U mahbuslar orasida tartibni saqlashga yordam berardi. Bir kuni kechasi ikki mahbus tush ko'rdi. Xudo Yusufga tushlarni **ta'bir qilishga** yordam berdi. Bu ikkala tush ta'biri ham amalgalashdi.

Ikki yil o'tgach, podshoh tush ko'rdi, lekin hech kim uning tushini ta'bir qila olmadi. Keyin bir odam Yusufnini qamoqda ekanini esladi. Podshoh bu haqda bilgach, "Uni huzurimga olib keeling," - deb **buyurdi**.

Keyin Yusufni tezda olib kelishdi. Shoh unga tushlarini aytib berdi, Yusub tinglab bo'lgach shunday dedi: "Xudo sizga bu tushlarni yuborgan. Tez orada shunday yetti yil keladiki, bu yillar davomida yer mo'l hosil beradi. Shundan so'ng, yetti yil **ocharchilik bo'ladi**. Siz odamlarga dastlabki yetti yil ichida iloji boricha ko'proq hosil olishga yordam beradigan dono odamni topishingiz kerak, shunda bu zaxiralar ocharchilik yillari uchun ham yetarli bo'ladi".

Podshoh Yusufning **donoligidan** mamnun bo'lib: "Sendan ko'ra dono odam yo'q. Sen boshqaruvchi bo'lasan," - dedi. Podshoh Yusufga chiroyli kiyim berishni buyurdi va bundan buyon hamma Yusufga **bo'ysunishi** kerak dedi. Yusuf tufayli mo'l hosil yig'ib olindi.

Keyin **ochlik boshlandi**. Ko'p odamlar Misrdan oziq-ovqat sotib olish uchun uzoqdan kelishardi. Bir kuni Yusufning akalari ham kelishdi. Ular Yusufga ta'zim qilishdi, chunki ular ukasi boshqaruvchi ekanligini bilishmagan va Yusuf ularga o'zini tanitmagan edi. Yusuf ularga mo'l-ko'l don olishga ruxsat berdi va ular uylariga ketishdi.

Keyingi safar ular kelganlarida, Yusuf ularga o'zini tanitdi. Akalari **qo'rqib ketishdi**. Ular Yusufga yetkazgan barcha yomonliklari uchun ularni jazolashiga amin edilar. Ammo Yusuf yig'lab, ularni quvonch bilan qarshi oldi va keyin uyiga taklif qilib dedi: "Yana besh yil ocharchilik bo'ladi. Uyga shoshiling otamni va oilangizni Misrga olib kel. Siz eng yaxshi yerda yashaysiz va men sizga **g'amxo'rlik qilaman**".

Yoqub o'g'li Yusufni yana ko'rishdan juda xursand edi. Xudo Yusuf bilan birga edi va shunday qildiki, uning orzulari ro'yobga chiqdi.

### SAVOL JAVOB:

1. Odamlarga hosilni yig'ishda kim yordam berdi?  
(Yusuf odamlarga hosil yig'ishda yordam berdi)
2. Akalari Yusufga ta'zim qildilarmi?  
(Ha, akalari unga ta'zim qilishdi)
3. Yusuf akalaridan g'azablandimi?  
(Yo'q, uning jahli chiqmadi. U ularga mehribon edi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egamiz Yusuf bilin birga bo'lib, unga ko'p muvaffaqiyat keltirardi" (Ibtido 39:2).

## 12. AYUB

### Ayub kitobidan



Bir vaqtlar Uz degan yurtda **Ayub ismli boy odam yashardi**. Bir kuni shayton bilan suhbatda Xudo aytdiki: "Ayub menga qanday itoat qilayotganini ko'ryapsanmi?". Bunga shayton javob berdi: "Ayubga juda ko'p baraka berganing uchungina xizmat qiladi, lekin agar Sen undan bo'ylik olib qo'ysang, Ayub Seni la'natlaydi".

Keyin Xudo shaytonga: "Sen undan bor narsasini olishing mumkin," - deb aytdi.

Shayton Ayubga juda ko'p **qayg'u keltirdi**. Uning barcha ho'kizlari, eshaklari va tuyalari nobud bo'ldi. Uning qo'ylari olovda yonib ketdi. Ammo eng achinarlisi shundaki, kuchli shamol tufayli uy Ayubning bolalarini bosib qoldi va ularning hammasi **vafot etdi**.

Ammo Ayub Xudoni la'natlamadi. U Xudoga sajda qildi. Shayton yana Xudoga keldi va Xudo undan so'radi: "Ayub hali ham meni sevishini va itoat etishini ko'rdingmi?".

Ammo shayton: "Agar Ayubni dardga yo'liqtirsang, u seni **sevishdan to'xtaydi**," - dedi.

Xudo shaytonga: "Sen Ayubni dardga yo'liqtirishing mumkin, lekin uni jonini olma," - deb ruxsat berdi. Shayton Ayubni butun vujudini yaralar bilan qopladi, Shuning uchun Ayub o'zini juda yomon his qildi va og'riqdan azob chekdi.

Ayubning uch do'sti uning oldiga kelib, uning azob chekayotganini ko'rishdi. Nihoyat, Ayub shunday dedi: "Men tug'ilmaganim ma'qul edi. Mening **azoblarim juda ko'p**".

Keyin uning do'stlari hamdardlik bilan: "Ayub, ehtimol sen yomon ish qilgandirsan va endi Xudo sizni jazolayabti. Iltimos, gunohlaringdan tavba qil va Xudo seni barcha azoblardan xalos qiladi," - deb aytishdi.

Ammo Ayub qat'iy javob berdi: "Xudo biladiki, men muhtoj odamlarga yordam berdim va ularni xursand qildim. Odamlar mening maslahatlarimga qulq solishdi. Endi esa hatto yosh bolalar ham mening ustimdan kulishyabti".

Ayubning **do'stlari** uzoq vaqt nasihat qilishdi. Ular Ayubning yomon ishlarni qilganiga amin edilar. Ayub, aksincha, to'g'ri ish qilganiga ishonardi. Shuning uchun ular suhbatni to'xtatdilar.

Ammo vaqt o'tib, Xudo quyun orasidan Ayubga ko'p savollar berdi. Ayub Xudoga javob berar ekan o'zini Uning oldida **o'zini kichik va ojiz his qildi**.

Xudo Ayubning do'stlariga: "Ayubga aytganlaringiz shafqatsiz va adolatsizdir, shuning uchun Ayubdan sizni jazolamasligim uchun ibodat qilishni so'rang," - dedi.

Keyin Xudo Ayubga katta bo'ylik berdi. Xudo unga avvalgidan ikki baravar ko'p hayvonlar va ko'p farzandlar berdi. Ayub Xudoga sajda qildi va Xudo **undan mammun** edi.

#### SAVOL JAVOB:

1. Ayubga kim ko'p azob berdi?

(Shayton Ayubga juda ko'p azob berdi)

2. Ayubning oldiga kim keldi?

(Ayubning do'stlari uning oldiga kelishdi)

3. Xudo Ayubdan mammunmi?

(Ha, Xudo Ayubdan mammun edi)

#### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egamning nomiga hamdu sanolar bo'lzin!" (Ayub 1: 21).

### 13. SAVATDAGI CHAQALOQ MUSO

*Chiqish 2-3*



Yoqub va uning o'g'illari Misrga ko'chib o'tishganida, Yusuf va shoh ularga g'amho'rlik qildilar. Xudo Yoqubning ismini Isroilga o'zgartirdi, shuning uchun uning barcha bolalari **Isroil xalqi** deb nomlandi.

Ko'p yillar o'tgach, Misrda yana bir podshoh hukmronlik qildi, u Yusuf haqida bilmasdi. Yangi podshoh Isroil xalqini ko'rdi va qo'rqib ketdi. U shunday dedi: "Bu odamlar kuchli va juda ko'p. Ularni mashaqqatli mehnat bilan zaiflashtirish kerak".

**Yovuz va shafqatsiz** podshoh Isroil bolalarini juda og'ir ishlarni bajarishga majbur qildi, lekin Xudo Isroil xalqi tomonida edi va ularning kuchayishiga yordam berdi.

Keyin podshoh buyurdi: "Isroil honadonida tug'ilgan barcha o'g'il bolalarni daryoga oqizib yuboring".

Barcha ota-onalar o'z farzandlarini yaxshi ko'rishardi. Shunday qilib, bir oila farzandini **qutqarishga** harakat qildi. Ona kichkina savat to'qib, suv kirmasligi uchun uni qora saqich bilan suvab va o'g'lini shu savatga solib qo'ydi. Keyin uni daryo bo'yidagi qamishlar orasiga yashirdi. Kichkintoyning katta opasi unga yaqin joyda turib, uni kuzatdi.

Biroz vaqt o'tgach, malika xizmatkorlari bilan daryoga cho'milish uchun kelib, kichkina savatni topib oldi va unda yig'layotgan chaqaloq bor edi. **Malika** bolani juda yaxshi ko'rib qoldi va uni qutqarishga qaror qildi.

Va tez orada chaqaloqning opasi ularning oldiga kelib: "Men chaqaloqqa g'amxo'rlik qiladigan ayolni topa olaman," - deb taklif qildi.

Malika xursand bo'ldi va rozi bo'ldi. Chaqaloqning opasi onasini olib keldi. Malika chaqaloqqa **Muso** deb ism qo'ydi va so'radi: "Iltimos, bu chaqaloqqa g'amxo'rlik qiling va men sizga pul to'layman". Xudo ularning chaqalog'ini qutqarganidan butun oila juda baxtli edi!

Muso voyaga etganida, u malika bilan saroyda yashay boshladi. U odam xohlagan hamma narsaga ega edi: chiroyli kiyim va mazali taom. Ammo Muso o'z xalqini, Isroil bolalarini hech qachon **unuta olmadidi**. Muso ularning ishlari qanchalik qiyinligini ko'rdi va ularga yordam berishga qaror qildi. Xudo Musoni Isroil xalqiga yo'lboshchi qilib taynladi.

#### **SAVOL JAVOB:**

1. Onasi chaqaloq Musoni qayerga yashirdi?  
(Daryo bo'yidagi qamishlar orasiga)
2. Kim yaqin atrofda turib, bolani kuzatdi?  
(Chaqaloqning opasi kuzatib turdi)
3. Kim juda og'ir ishlarni bajarishi kerak edi?  
(Isroil xalqi juda og'ir ishlarni bajarishlari kerak edi)

#### **ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:**

"...Egam Madadkorimdir, shu bois qorqmayman" (Ibroniylarga 13: 6).

## 14. MUSO O'Z XALQINING YO'L BOSHCHISI

*Chiqish 2-14*



Muso Xudoning xalqining yo'l boshchisi bo'lishidan oldin, Xudo unga ko'p narsalarni o'rgatishi kerak edi. Muso **sahroda qirq yil** davomida xotini va bolalari bilan yashadi.

Bir kuni Muso qo'ylni boqayotganda, yonayotgan butani ko'rdi, buta yonardi-yu, ammo yonib tugamasdi. Bu yonayotgan butadan Xudo Musoga zohir bo'ldi: "Men seni Misrga qaytishingni xohlayman, chunki men xalqimning juda **chekkan azoblarini ko'rdim**. Isroil xalqini Kan'on yurtiga olib borib, u yerda yashashingizni xohlayman".

Shunday qilib, Muso Misrga qaytib, Xudo aytganidek qildi. Muso va uning akasi Horun podshohning oldiga borib: "Xudo Isroil xalqini o'z yurtiga qo'yib yuborishingizni istaydi, shunda ular borib unga sajda qilishadi," - deyishdi.

Ammo podshoh: "Men Sizning Xudo yingizni bilmayman va xalqingizni qo'yib yubormayman," - dedi. Podshoh agar Isroil xalqi uning yurtidan chiqib ketsa, hech kim og'ir ishlarni qilmasligini bilar edi. Shundan so'ng, u ularni yanada **qattiqroq ishslashga** majbur qildi.

Xudo bu podshohning qanchalik shafqatsiz ekanligini ko'rdi, unga va butun Misr xalqiga ko'p ofatlar yubordi. Ammo shoh baribir Isroil xalqini qo'yib yubormadi. Xudo Misrga qurbaqalar, chigirkalar, do'l, chipqon va boshqa **baxtsizliklarni** yubordi. Kunlardan bir kuni yer yuzini zulmat qopladi lekin podshoh baribir o'z gapida turib oldi.

Oxir-oqibat, bir kuni kechasi, Xudo har bir Misr oilasida tug'ilgan to'ng'ich o'g'il bolalarining jonini olishga majbur bo'ldi. Ammo Isroil xalqining hech bir farzandi o'lindi, chunki Xudo aytganidek, Uning xalqi **qo'zilarning qonini** eshik kesakisi yonlariga va tepasiga surtgan edilar. Shundagina shoh Musoga: "Xudo hammamizni yo'q qilmasidan oldin, hamma narsalariningizni olingda va yurtni tezda tark eting", dedi.

Muso va barcha Isroil xalqi ketishga otlandilar. Ular Misri tark etib, **Qizil dengizga** borishdi. Lekin yolg'onchi va yovuz podshoh birdan fikrini o'zgartirdi. U ularni o'z yurtiga qaytarish uchun ularning orqasidan quvdi.

Keyin Xudo mo'jiza yaratdi. To'satdan dengiz ikkiga bo'linib suvning o'rtaida quruqlik paydo bo'ldi, Muso va Isroil xalqi u yerdan o'tib oldi. Podshoh va uning odamlari ularning orqasidan o'tishmoqchi bo'lganlarida, Xudo dengizga suvlarini qo'yib yuborishni buyurdi va ularning hammasi cho'kib ketishdi. Xudoning xalqi Unga ishonib itoat etganida juda ko'p mo'jizalar yaratadi.

### SAVOL JAVOB:


1. Isroil xalqi qanday ishslashlari kerak edi?  
(Ular juda og'ir mehnat qilishlari kerak edi)
2. Xudo o'z xalqini boshqarish uchun kimni tanladi?  
(Xudo o'z xalqini boshqarish uchun Musoni tanladi)
3. Muso va Xudoning xalqi qizil dengizga g'arq bo'ldimi?  
(Yo'q, ular quruq yo'ldan yurishdi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Ey Egam, ishlaring naqadar buyukdir!" (Zabur 91: 6).

## 15. XUDO XALQINING SAYOHALTI

Chiqish 15, Sahroda 21



Qizil dengizdan o'tib, Muso va Xudoning xalqi **sahroga kelishdi**. Ular va'da qilingan yurt tomon yurishni davom ettirdilar.

Xudo isroilliklarga doimo yordam berardi. Egamiz kunduzi ustun shaklidagi bulut ichida, kechasi ustun shaklidagi alanga ichida ularning oldida yurib, yo'llarini yoritib yo'l ko'rsatib bordi. Agar bu bulut harakatlanayotgan bo'lsa, Isroil xalqi chodirlarini ko'tarib yo'lda davom etar edilar.

Isroil xalqining suvi **taxir bo'lib qoldi**, Xudo esa ularga toza suv berdi. Ularda ichish uchun umuman suv qolmaganida, Xudo ular uchu qoyalar orasidan suv chiqardi.

Odamlar ochlikni boshdan kechirganlarida, Xudo non pishirishlari uchun har kuni tongda ular uchun osmondan **manna yog'dirdi**. Go'sht sifatida esa, ularga bedanalarni yubordi.

Dushmanlar isroilliklarga qarshi jang qilish uchun kelganlarida, Xudo ularga g'alaba qozonishga yordam berdi.

Xudo o'z xalqini **yaxshi ko'rardi**, lekin odamlar itoat qilmaganda, ularni jazolashi kerak edi.

Bir kuni Xudo odamlar qanday yashashlari va unga qanday sajda qilishlari kerakligini tushuntirdi. Xudo Musoga muqaddas chodir deb nomlangan qurbongohni qanday qurishni aytdi. U Musoga o'nta amr yozilgan ikkita tosh lavhani berdi.

Ammo Muso tog'da bo'lganida, odamlar kutishdan charchashdi. Ular Horunga: "Bizni xudolar yasab ber," - deyishdi. Horun ularga **oltin buqa** yasab berdi. Keyin Xudo g'azablanib, odamlarni qattiq jazoladi. Ularning ko'plari vafot etdi.

Muso Kan'onga **o'n ikki ayg'oqchini yubordi**. Ular qaytib kelganlarida, faqat ikkitasi: "Xudo bizga yordam beradi," - deyishdi. Qolgan o'n kishi: "U yer yaxshi, lekin u yerda kuchli va bahaybat odamlar yashaydi. Biz ulardan qo'rquamiz," - dedilar. Odamlar bu o'n kishiga ishonishdi. Ular Xudoga ishonishmadidi. Shuning uchun Xudo hamma odamlar sahroda juda uzoq vaqt qolishlari kerakligini aytdi. Ba'zi odamlar Musoga ishonishmadidi va: "Xudo seni bizning yo'l boschchimiz bo'lishingni xohlamaydi," - deyishdi. Keyin Xudo yer yuzida **katta yoriq hosil qildi** odamlar va ularning oilalari u yerga tushib o'lishdi.

Ba'zida odamlar nolib shikoyat qillardilar. Ular: "Biz bu mannani yeyishdan charchadik," deganlarida, Xudo odamlarni chaqish uchun ilonlarni yubordi. Ularning ko'plari vafot etdi.

Isroil xalqi qirq yil davomida sahroda yo'l yurishdi va Xudo ularga doimo tinimsiz g'amxo'rlik qilardi. Ular Xudoga ishonishlarini xohladi.

### SAVOL JAVOB:


1. Xudoning xalqi qayerda yurdi?  
(Ular sahroda yurdilar)
2. Xudoning xalqi har doim Xudoga itoat qildimi?  
(Yo'q, ular har doim ham Xudoga itoat qilmadilar)
3. Xudo o'z xalqiga qanday yordam berdi?  
(Turli javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egamizga umid bog'lab yaxshilik qilgin" (Zabur 36:3).

## 16. YOSHUA

Chiqish 17, Sahroda 2, Yoshua 3-24



Xudoning xalqini Kan'on yurtiga kirish vaqtি bor keldi. Muso ularga Xudoning barcha qonunlarini yodda tutib, ularga amal qilishlarini aytди. Shundagini Xudo ularga baraka berardi. Muso: "Xudo siz uchun qilgan barcha yaxshiliklarini **yodingizda tuting**," - dedi.

Muso Yoshuani yangi yo'lboshchi qilib tayinladi. Yoshuaga esa kuchli bo'lismi va har doim Xudoga itoat qilishni buyurdi.

Muso yaxshi yo'lboshchi edi, lekin bir kuni odamlar suvga muhtoj bo'lganida, Muso o'zini tuta olmadi va g'azablandi. Xudo: "Qoyaga ayt suv chiqadi," - dedi, lekin buning o'rniga Muso **qoyaga tayoq bilan urdi**. Xudo Musoga Kan'on yurtiga kirmasligini aytди.

Musoning o'lim vaqtি keldi. Avvaliga Xudo unga baland tog'dan go'zal Kan'oni ko'rish imkoniyatini berdi va Muso vafot etganida, Xudo uni o'zi ko'mdi va uning **qabrini hech kim ko'rmadi**.

Yoshua yaxshi yo'lboshchi edi. U Isroil xalqiga Kan'on yurtiga kirishga tayyorgarlik ko'rishga yordam berdi. Ular Iordan daryosidan o'tishlari kerak edi va Yoshua ruhoniylarga biringchi bo'lib borishni aytди. Ruhoniylar suvga qadam qo'yanlarida, Xudo shunday qildiki, oqayotgan suv to'xtab quruq yer hosil bo'ldi. Hamma odamlar **quruq yer bo'ylab** boshqa tomonga o'tishdi.

Isroil xalqi Yerixo shahri yaqinidagi yerkirada chodirlarini tikishdi. Xudo Yoshuaga nima qilish kerak va qanday qilish kerakligini aytди. Olti kun davomida har kuni odamlar katta shahar atrofida jimgina yurishdi. Yettinchi kuni esa ular shahar atrofini yetti marta aylanib chiqishdi. Keyin ular juda baland ovozda baqirishdi va Xudo shunday qildiki, shahar **devorlaridan tortib poydevorigacha** qulab tushdi. Isroilliklar shaharga kirib, uni olov bilan yoqib yuborishdi.

Xudo: "Hech kim o'ljadan hech narsa olmasligi kerak," - dedi. Ammo Oxun ismli bir kishi Xudoga itoat qilmadi va o'sha shahardan o'ziga pul va kiyim oldi. U hamma narsasini chodirining ostiga yashirdi.

Oxun itoatsizlik qilgani uchun Xudo o'z xalqiga yordam berishdan bosh tortdi. Yoshua Xudodan nega ular muammoga duch kelayotganlarini so'radi. Xudo: "Orangizda bir inson **menga itoat qilmadi**. Uni yo'q qilish kerak," - dedi. Xudo Yoshuaga bu Oxun ekanligini aytди. Odamlar Oxun va uning oilasini toshbo'ron qilishdi, shunda Xudo yana o'z xalqiga yordam bera boshladi.

Yoshua Isroil xalqining yo'lboshchisi bo'lgan payt, ularning hammasi Egamizga xizmat qilishdi va Xudo ularga baraka berdi.

### SAVOL JAVOB:


1. Muso vafot etganidan keyin kim yo'lboshchi bo'ldi?  
(Yoshua Musoning vafotidan keyin yo'lboshchi bo'ldi)
2. Odamlar baqirganlarida Yerixoda nima bo'ldi?  
(Shahar devorlari qulab tushdi)
3. Xudo Oxunning itoatsizligini bilarmidi?  
(Ha, Xudo Oxunning itoatsizligini bilar edi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Men va mening oilam esa Egamizga xizmat qilamiz" (Yoshua 24:15).

## 17. GIDO'N

### Hakamlar 1-8



Yoshua vafotidan keyin odamlar **yagona Xudoga** xizmat qilishda davom etishdi. Ammo ko'p yillar o'tgach, Isroil xalqi butlarga sig'inadigan odamlar bilan do'stlashdilar. Ba'zan esa farzandlariga ular bilan turmush qurishlariga ruxsat berishdi. Keyin ular ham butlarga sig'inishni boshladilar. Xudoning xalqi yomonlik qilib, **butlarga** sig'ingan payt, Xudo ularni barakalashdan bosh tortdi. Boshqa yerlardan kelgan odamlarga, Isroil xalqiga azob berishiga imkon berdi. Keyin Xudoning xalqi yig'lab, Xudoga sajda qilishdi.

Ular yolvorganlarida Xudo o'z xalqiga yordam berdi. Egamiz O'z xalqini dushmanlardan qutqarish uchun "**Haqamlar**", - deb nomlangan yo'lbochchilarni berdi. Xudo hakamlar bilan birga edi va ularga yordam berardi.

Bir vaqtlar Isroil xalqi g'orlarda yashirinishlariga tog'ri keldi edi, chunki dushmanlar ulardan qo'lga kiritgan barcha narsalarini olib qo'yishgan edi. Odamlar **g'amga botgan edi**, lekin Xudo ularning iltijosini eshitdi va Uning farishtasi Gido'nni yubordi. Farishta: "Gido'n, men senga xalqimni qutqarishda yordam beraman,"- dedi. Gido'n farishtaga ovqat olib kelganida, Farishta tayog'ining uchi bilan unga tegdi va olov uni yoqib yubordi. Keyin Farishta g'oyib bo'ldi.

O'sha kecha Xudo Gido'nga: "But uchun qilingan qurbongohni vayron qil va men uchun qurbongoh qur,"- dedi. **Gido'n itoat qildi**.

Xudo Gido'nning dushmanlarga qarshi kurashish uchun qo'shin tayyorladi. Ammo odamlar Gido'nning oldiga kelganlarida, Xudo: "Sen bilan juda ko'p odamlar bor. Agar qo'shin juda katta bo'lsa, odamlar mena ishonish shart emas deb o'ylashadi". Keyin Gido'n kim borishga **qo'rqayotgan** bo'lsa, uyiga qaytishi mumkinligini aytdi. Keyin Xudo: "Hali ham juda ko'p odamlar bor,"- dedi. Shundan so'ng Gido'n faqat kuchli va jasur bo'lgan erkaklarni tanlab oldi.

Dushman qo'shinida juda ko'p askarlar bor edi, lekin Gido'n Xudo unga va uning kichik qo'shiniga yordam berishiga ishonardi. Gido'n o'z odamlarini uchta kichik guruhg'a ajratdi va kechasi ular hujumni boshladilar. Dushmanni qo'rqtish uchun ular **ko'zalarini urib sindirishti**, chiroqlarni ko'tarib, karnay-surnay chalib va baqira boshlashdi.

Dushmanlar shunchalik qo'rqib ketishdiki, ular bir-birlarini o'ldira boshladilar. Xudo Gido'nga va uning odamlariga yordam berdi va dushmanlar endi Xudoning xalqiga azob bermadilar.

#### SAVOL JAVOB:


1. Xudo o'z xalqining butlarga sajda qilishini xohladi mi?  
(Yo'q, Xudo o'z xalqining unga sajda qilishini xohlardi)
2. Gido'nning qo'shin tayyorlashini kim xohladi?  
(Xudo Gido'nning qo'shin tayyorlashini xohladi)
3. Gido'n va uning odamlari qachon dushmanga yaqinlashdilar?  
(Gido'n va uning odamlari tunda dushmanga yaqinlashdilar)

#### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Ko'p marta Egamiz ularni qutqardi" (Zabur 105:43).

## 18. SHIMSHO'N

*Hakamlar 13-16*



Bir paytlar Xudoning xalqi yomonlik qilganlarida, Xudo Filistlarga ularni jazolashiga qo'yib berdi. Ammo Xudo hali ham **o'z xalqini sevardi**. U bir ayolga va uning eriga O'z farishtasini yubordi. Farishta shunday dedi: "Siz o'g'il farzandli bo'lasizlar. Siz hech qachon o'g'lingizning **sochlari**ni **kesmasligingiz kerak**, chunki uning uzun sochlari uning Xudoga tegishli ekanligidan dalolat beradi. U Isroil xalqini filistlardan qutqaradi".

Bu odam va uning rafiqasi farishtaga ishonishdi. Xudo ularga Shimsho'n ismli o'g'il berdi. Shimsho'n ulg'aygach, Isroil xalqiga hakam bo'ldi.

Bir kuni sher, bo'kirib, Shimsho'nga yaqinlashdi. Xudo unga kuch berdi. Shimsho'n **sherni o'z qo'li bilan o'lirdi**.

Kunlardan bir kuni Shimsho'n uch yuzta tulkini ushladi. U yonayotgan mash'alalarini dumlariga bog'lab qo'ydi va tulkilarni Filistlar dalalariga qo'yib yubordi, keyin esa tulkilarning dumlarida yonayotgan olov dalalardagi hosilni yoqib yubordi.

Bir kuni Shimsho'n eshakning **jag'ini topib** oldi. Xudo shu jag' bilan mingta Filistni o'lirishiga yordam berdi. Keyin u jag'ni tashlab yubordi. G'alabasidan keyin Shimsho'n shunday chanqaganki, u tashnalikdan o'lay dedi. Xudo Shimsho'nni tashnalikdan qondirish uchun bir buloq hosil qildi.

Bir kuni Shimsho'n Filistlar shaharlaridan birida edi. Shahar **darvozalarida** uni ertalab qo'lga olish uchun pistirma kutib turardi. Ammo yarim tunda Shimsho'n shahar darvozalarini yondonlari bilan sug'urib oldi-da, tog' cho'qqisiga olib chiqdi. Xudo unga kuch berdi.

Shundan so'ng, Shimsho'n nima uchun bunchalik kuchli ekanligini aniqlashga harakat qilgan ayolni sevib qoldi. Oxir-oqibat u unga kuch sochlarda ekanligini aytdi. Keyin, Shimsho'n uxlab yotganida, bu ayol bir kishiga Shimsho'nning sochlari **qirqishini aytdi**. Shimsho'n uyg'onganida, u endi kuchli emas edi. Shimsho'n Xudoga itoatsizlik qildi, Filistlar uning ko'zlarini o'yib, qamoqqa tashladilar.

Keyin Filistlar Shimsho'nning ustidan kulmoqchi bo'lib va uni odamlar bilan to'la uyga olib kelishdi. Shimsho'nning esa bu vaqtga kelib sochlari yana o'sib, uzun bo'lib qolgan edi. U uy ustunlarni ushlab turardi va Xudodan yordam so'rab **iltijo qildi**. Keyin u ustunlarni o'rnidan siljiti yubordi va uy qulab tushdi. Shimsho'n Xudoga itoat qilganidagina kuchli edi.

### SAVOL JAVOB:


1. Xudo Shimsho'nning sochlari qirqishini xohlarmidi?  
(Yo'q, Xudo Shimsho'nning itoat etishini xohlardi)
2. Shimsho'n kimning jag'I bilan jang qildi: tulki yoki eshakmi?  
(Shimsho'n eshakning jag'i bilan jang qildi)
3. Shimsho'n qaysi payt katta shahar darvozasini olib ketdi?  
(Shimsho'n yarim tunda darvozani olib ketdi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"...Uning buyuk qudrati sizni baquvvat qilsin" (Efesliklar 6:10).

## 19. RUTNING NAIMAGA BO'LGAN SEVGISI

*Rut kitobi*



Hakamlar hukmronligi davrida Isroilda ocharchilik boshlandi, chunki yer yomon hosil berdi. Elimalek ismli bir kishi xotini Naima va ikki o'g'li bilan hosil **yetishmasligi** sababli o'z uyini tark etib, boshqa yerga yo'l oldi. Bu erda Naimaning eri vafot etdi va uning ikki o'g'li Rut va O'rpa ismli xotinlarini olib ketishdi. Biroq, bir necha yil o'tgach, o'g'illari ham vafot etdilar. Bundan Naima juda qattiq **qayg'uga** botdi. U Baytlahmga uyga qaytishga qaror qildi, chunki Xudo yaxshi hosil yuborgani va odamlar allaqachon ko'proq ovqatga ega bo'lganligi haqida xabar keldi.

O'rpa va Rut Naimani yaxshi ko'rishardi, u bilan birga borishga qaror qilishdi. Ammo Naima: "Siz ota-onangiz bilan o'z yeringizda qolganingiz ma'qul," - dedi. Keyin **O'rpa oilasi bilan qoldi**.

Ammo Rut Naimani juda yaxshi ko'rardi va so'radi: "Iltimos, meni siz bilan borishimga ijozat bering. Men siz yashaydigan joyda yashashni xohlayman. Sizning xalqingiz mening xalqimga aylanadi. Sizning Xudoyingiz mening Xudoyim bo'ladi". Naima unga ruxsat berdi.

Ular Baytlahmga arpa yig'im-terimiga kelishdi. Rut Naimaga yordam bermoqchi edi. U so'radi: "Dalalardan **bug'doy boshoqlarini** terib kelsam maylimi?". Naima rozi bo'ldi.

Rut Bo'az ismli yaxshi bir odamning dalasiga keldi. Bo'az Rutni ko'rib, xizmatkoridan u haqida so'radi. Xizmatkor javob berdi: "Bu Naima bilan birga kelgan ayol. U yaxshi ishchi".

Boaz Rut bilan uchrashdi va: "Siz mening dalalarimda qolishingiz va har kuni ishлаshingiz mumkin," - dedi. Bo'az o'z xizmatkorlariga **Rutni hurmat qilishni buyurdi**, chunki Rut Naimaga qanchalik yaxshi munosabatda bo'lganini ko'rdi. U Rutga yordam berdi va unga ozuqa berdi. Rut buning uchun minnatdorchilik bildirdi, endi Naimaga ko'proq ovqat olib ketayotgandi.

Shundan so'ng Bo'az Rutni sevib qoldi va unga uylandi. Xudo ularga **o'g'il berdi**, uning ismini Obid qo'ydilar. Naima Rutning o'g'lini boqib, uni tarbiyalashdan xursand edi.

Obid o'sib ulg'ayganida, u oxir-oqibat Shoh Dovudning otasi bo'lgan Essay ismli o'g'ilni ko'rdi. Xudo: "Najotkor Shoh Dovudning oilasidan tug'iladi," - dedi.

### SAVOL JAVOB:

1. Naima nimadan qayg'uga botdi?  
(Uning eri va ikki o'g'li vafot etdi)
2. Rut qanday ishchi edi?  
(Rut yaxshi ishchi edi)
3. Bo'azning rafiqasi kim bo'ldi?  
(Rut Bo'azning rafiqasi bo'ldi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Sendan umid qilaman..." (Zabur 55:12).

## 20. SHOMUILNING YOSHLIGI

1 Shohlar 1-7



Elax Isroilda ruhoniy bo'lib, Shilo'dagi Xudoning uyida yashardi. Odamlar u yerga ibodat qilish uchun kelishardi.

Bir kuni Elax **Xanna** ismli ibodat qilayotgan ayolni ko'rib qoldi. U farzand ko'rmayotganidan qayg'uda edi. Xanna, agar Xudo unga farzand bersa, uni **Xudoga bag'ishlayman**, deb va'da berdi.

Elax Xannaning yig'layotganini ko'rib, uning qayg'usi nima ekanligini so'radi. U javob berdi: "Men barcha qayg'ularimni Xudoga aytdim".

Elax: "Eson-omon bor. Xudo sening ibodatinga javob beradi," - dedi.

Xanna eri bilan uyiga ketdi va Xudo **uning ibodatiga javob berdi**. Xudo ularga farzand ato etdi, uning ismini Shomuil deb qo'yishdi.

Xanna va'dasini bajardi va Shomuil katta bo'lganida, ota-onasi uni Elaxning oldiga olib kelishdi. Xanna: "Xudo mening ibodatlarimga javob berdi va Shomuil Xudoga tegishli," - dedi. **Shomuil Elax bilan qoldi**. Har yili Xanna Shomuilga yangi kiyim tikib, ibodat qilish uchun kelganida uni olib kelardi.

Elax keksayim qolgandi, Shomuil esa unga yaxshi yordamchi bo'ldi.

Bir kuni Shomuil uxbab yotganida, uni bir ovoz: "Shomuil," - deb **chaqirdi**. U Elax uni chaqirdi deb o'yladi va uning oldiga kelib: "Men shu yerdaman," - dedi. Ammo Elax: "Men seni chaqirmadim. Borib yot," - dedi.

Shomuil yana yotog'iga borib yotdi. Shomuil yana ikki marta kimdir uning ismini aytib chaqirganini eshitdi. Va har safar u Elaxning oldiga bordi, lekin Elax uni chaqirmagandi. Keyin Elax dedi: "Agar sen yana shu ovozni eshitsang, javob berib: "Gapiraver, ey Egam quling tinglayotir," - degin.

Shomuil Elax aytganday qildi. Shunda **Xudo Shomuilga gapirdi**. Xudo Shomuilga Elax va uning o'g'illarini jazolashini aytdi, chunki Elax o'g'illarini yomonlik qilganda to'xtatmadni.

Ertalab Shomuil o'rnidan turib, Xudon uyining eshiklarini ochdi. Elax Shomuildan Xudo nima deganini so'raganda, Shomuil unga eshitgan hamma narsani aytib berdi.

Tez orada urush boshlandi va Elax ikki o'g'li o'ldirildi. Elax o'z o'limi haqida eshitib, yiqilib, bo'ynini **sindirib oldi** va vafot etdi.

Shomuil esa Isroilda yangi hakam bo'ldi. U odamlarni Xudoga itoat qilishga o'rgatdi, Xudo esa u bilan birga edi.

### SAVOL JAVOB:

1. Xudo Xannaning ibodatiga javob berdimi?  
(Ha, Xudo unga farzand berdi)
2. Xanna Xudoga bergen va'dasini bajardimi?  
(Ha, Xanna Shomuilni Xudoning uyiga olib borib, u erda qoldirdi)
3. Bir kuni kechasi Shomuilni kim chaqirdi?  
(Xudo Shomuilni chaqirdi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Gapiraver, ey Egam quling tinglayotir" (1 Shohlar 3:9).

## 21. SHOUL-BIRINCHI SHOH

*I Shohlar 8-15*



Shomuil qariganida, o'g'illari unga Isroil xalqini boshqarishda yordam berishdi. Ammo uning o'g'illari har doim ham odamlarga nisbatan adolatli emas edilar va shuning uchun odamlar Shomuilga: “**Shoh** bizni boshqarishini xohlaymiz,” - deb aytishdi.

Ammo Shomuil Xudo O'z odamlarini boshqarayotganini bilar edi. Ularga shoh kerak emas edi. Keyin Shomuil Xudodan maslahat so'radi. Xudo Shomuilga shunday dedi: “Xalqimda shoh bo'lsin, lekin ularga shoh qanday bo'lishini ayt. Shoh ularning dalalari va hayvonlarini olib, odamlarni o'z **xizmatkorlariga** aylantiradi”. Shomuil Isroil xalqiga Xudo aytganlarini yetkazdi, lekin ular o'z **fikrlarida** qolishdi.

Bir kuni bir odamning eshaklari yo'qolib qoldi. Uning o'g'li **Shoul** eshaklarni qidirishga bordi, lekin ularni topa olmadi. Keyin u Shomuilga shu haqida aytди, Shomuil esa eshaklar topilganligini aytди va keyin: “Xudo seni Isroil xalqiga shoh etib sayladi,” - dedi. Keyin Shomuil Shoulning **boshiga moy surtib**, uni moyladi va shoh etib sayladi. Shundan keyn Shoul uyiga ketdi.

Tez orada Shomuil Shoulning shoh etib saylanganligini e'lon qilish uchun barcha odamlarni chaqirdi. Odamlar Shoulni ko'rishni xohlashardi, lekin u yashirinib oldi. Uni topishgach, hammalari baqira boshlashdi: “Yashasin shoh!” Shoh Shoul Isroildagi eng **kelishgan va baland bo'yli** odam edi.

Shoh Shoul yaxshi shoh bo'lishga va odamlarga yordam berishga harakat qildi. Avvaliga u Shomuilning barcha aytganlarini bajarardi.

Ammo bir kuni qayg'uli voqeа yuz berdi. Shomuil Shoh Shoulga: “Kelgunimcha kutib tur, kelib Xudoga qurbanlik keltiraman,” - dedi. Ammo Shoul qo'rqib ketdi. U Shomuilni kutmadi va uning o'rniga kelishidan oldin **qurbanlik qildi**.

Shomuil buni ko'rib: “Xudo seni itoatkor bo'lishingni xohlardi. Endi Xudo o'g'lingning keyingi shoh bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, endi shoh bo'ladigan boshqa odamni saylaydi. Xudo Unga itoat qilishni xohlaydigan odamni tanlaydi”.

Shoul itoatsizlik qilganidan **afsuslanmadи**. U hamma narsani Shomuildan yaxshiroq bilishiga ishonib, o'z bilganicha ish tutdi. Shoul tobora g'amgin bo'lib borardi, chunki Xudo undan yuz o'girdi va unga baraka bermadi.

### SAVOL JAVOB:


1. Yangi shohni kim moyladi?  
(Shomuil yangi shohni moyladi)
2. Shoul har doim Shomuilning aytganlarini bajardimi?  
(Yo'q, Shoul har doim ham Shomuilga itoat qilmadi)
3. Xudo Shoulning o'g'liga keyingi shoh bo'lishga ruxsat berdimi?  
(Yo'q, Xudo keyingi shoh bo'lish uchun boshqa odamni tanlashini aytди)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

“Ha, Itoat etish- qurbanlik so'yishdan yaxshiroqdir” (1 Shohlar 15:22).

## 22. CHO'PON DOVUD

*I Shohlar 16-26*



Xudo Isroil xalqiga Unga itoatkor shoh bo'lishini xohlardi. U Shomuilga: "Baytlahmga bor. Essayning o'g'illaridan birini keyingi shoh bo'lish uchun moyla," - dedi. Essay **Bo'az va Rutning** nabirasi edi.

Shomuil Baytlahmga yo'l oldi. U Essayning sakkiz o'g'lini ko'rди. Dovud ularning eng kichigi edi. U otasining qo'ylarini boqardi. Xudo Dovud shoh bo'ladigan vaqt keladi deb aytdi. Shomuil uni shoh qilib **moy surtdi**. Ammo Dovud shoh bo'lishiga yana ancha vaqt bor edi.

Shoul Xudoga itoat qilmagani uchun u ko'pincha g'amgin va xavotirda yurardi. Xizmatkorlar unga: "Arfa chaladigan odamni toping, shunda o'zingizni yaxshi his qilasiz," - deyishdi. Kimdir shunday maslahat berdi: "Essayning o'g'li Dovud **arfani yaxshi chaladi**. U yaxshi odam va Xudo u bilan".

Shoul Dovudni topib kelishga odam yubordi va Dovud unga arfa chalib berishni boshladi. Shoul uni eshitib o'zini yaxshi his qilardi. Keyin Dovud uyiga qaytdi.

Filistlar butlarga sig'inadigan dushmanlar edi. Ular Isroil bilan jang qilish uchun kelishdi. Ular orasida **Go'liyot ismli bahaybat bir jangchi** ham bor edi. Har kuni u baqirardi: "Kimir men bilan jang qilishga chiqsin. Agar u meni o'ldirsa, biz sizning qulingiz bo'lamic. Ammo agar men uni o'ldirsam, siz bizga xizmat qilasiz".

Shoulning qo'shini qo'rqib ketdi.

Dovudning uchta akasi Shoulning qo'shinida edi. Bir kuni Dovud akalariga ovqat olib kelib, Go'liyotning qichqirayotganini eshitib qoldi. U Shoulga: "Men Go'liyot bilan jang qilaman. Qo'ylnarni boqayotganimda, Xudo menga sher va ayiqni o'ldirishda yordam bergen. Xudo menga Go'liyotni ham o'ldirishda **yordam beradi**". Shoul Dovudga Go'liyotga qarshi jang qilishga ruxsat berdi.

Shunday qilib, Dovud beshta toshni oldi va Go'liyotga yaqinlashib: "Bizning Xudoyimiz O'z xalqini qutqarishini hamma bilsin," - dedi. Dovud **palaxmoniga** tosh qo'yib otdi, Xudoning yordami bilan uni o'ldirdi. Filistlar orqaga chekindilar.

Dovudning g'alabasi Isroil xalqini xursand qildi va Shoul g'azablandi, chunki hamma Dovudni yaxshi ko'rardi. Dovudning mashhurligiga hasad qilib, Shoulni uni bir necha bor o'ldirishga harakat qildi.

Shoulning o'g'li Yo'natan Dovudni yaxshi ko'rardi. Yo'natan va Dovud yaxshi do'st edilar. Dovud har doim Shoulga nisbatan adolatli va mehribon bo'lishga harakat qildi va Xudo Dovud bilan birga bo'ldi.

### SAVOL JAVOB:

1. Shomuil Essayning qaysi o'g'lini moyladi: katta yoki kichik?  
(Shomuil Essayning kenja o'g'li Dovudni moyladi)
2. Xudoga itoat qilmaganidan kim g'amgin va xavotirda edi?  
(Shoh Shoul g'amgin va xavotirli edi)
3. Go'liyot Dovudni o'ldirdimi?  
(Yo'q, Xudo Dovudga Go'liyotni o'ldirishda yordam berdi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egam menin Cho'ponimdir" (Zabur 22:1).

## 23. DOVUD SHOH TAXTIDA

2 Shohlar; 1 Solnomalar 22



Isroiilning **birinchi shohi Shoul** jangda halok bo'ldi. Yo'natan va Shoulning boshqa o'g'llari ham jang paytida nobud bo'lishdi.

Endi Dovud yangi shoh bo'ldi. U odamlarni umidsizlikka tushmaslikka va Xudoga itoat qilishga o'rgatdi. Dovud odamlar uchun Xudoni ulug'laydigan ko'plab qo'shiqlar yozgan. Dovud Xudoga sajda qilish uchun **Ma'bad qurmoqchi** bo'ldi. Ammo Xudo: "O'g'ling menin uyimni quradi," - deb aytdi. Shundan keyin Dovud o'g'lining Egamizga uy qurishi uchun hamma narsani tayyorlashni boshladi. Dovud **Xudoga itoatkor** bo'lishni xohlardi.

Shoh Dovud sevimli do'sti Yo'natanning oilasiga g'amxo'rlik qildi. Dovud Yo'natanning Mefibosit ismli cho'loq o'g'li borligini haqida bilib qoldi.

Keyin Dovud uning olib kelishga odam yubordi va dedi: "Men seni uyimda yashashingni va har kuni shu yerda ovqatlanishingni xohlayman. Men senga oilanga tegishli yerni beraman". Mefibosit shohga **mehribonligi** uchun minnatdorchilik bildirdi.

Ba'zida Shoh Dovud muammolarga duch kelardi. Bir kuni hatto uning o'g'li Absalom ham shoh bo'lishga harakat qildi. Odamlar shohni ko'rish uchun kelgan darvoza oldida turib, Absalom odamlar bilan do'stona suhbatlashdi. Ko'p o'tmay, ko'p odamlar uning otasi o'rniga yaxshi shoh bo'lishi haqida gapira boshladilar. Dovud Quddusdagi saroydan **o'z xavfsizligi** uchun qochishga majbur bo'ldi. Dovudning do'stlari mehribon edilar va unga yordam berishdi, Absalom o'rmonda o'ldirilgandan so'ng, Dovud yana taxtiga qaytdi. Xudo Dovud bilan birga edi, chunki u Xudoga ishonardi.

Dovud yaxshi shoh edi, lekin bir kun u **vasvasaga berilib**, gunoh ish qildi. Keyin Xudo uni jazoladi. Bir kuni Dovud o'z lashkarboshisiga odamlarni sanashni buyurdi, lekin bu Xudoga ma'qul kelmadi va u ko'p odamlarni o'ldirish uchun O'z farishtasini yubordi. Shoh Dovud qilmishidan qattiq pushaymon bo'ldi. Payg'ambar Dovudga odamlar bug'doyni yanchgan joyga borib Xudoga qurbongoh qurishni buyurdi. Dovud **xirmonni sotib** oldi va Egamiz payg'ambar orqali buyrganidek qildi. Shundan so'ng Dovud kechirildi va jazo to'xtatildi.

Shoh Dovud butun umri davomida Xudoni sevib yashadi.

### SAVOL JAVOB:


1. Xudo uchun ma'badni Shoh Dovud qurbanmi?  
(Yo'q, Xudo Dovudning o'g'li Ma'bad qurishi kerakligini aytdi)
2. Yo'natanning cho'loq o'g'li kim edi?  
(Mefibosit cho'loq o'g'il edi)
3. Dovud noto'g'ri ish qilganida nima qildi: u g'azablandimi yoki pushaymon bo'ldimi?  
(Dovud noto'g'ri ish qilganidan pushaymon edi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Gunohga qo'l urGANIM uchun pushaymonman" (Zabur 37:19).

## 24. SULAYMON TOMONIDAN MA'BAD QURILISHI

3 Shohlar 1-11



Xudo Shoh Dovudga o'g'li Sulaymon keyingi shoh bo'lishini aytdi. O'llimidan oldin Shoh Dovud o'g'li Sulaymondan har doim **Xudoga itoat etishini so'radi**, shundagina Xudo u bilan bo'lishini aytdi. Shoh Sulaymon yaxshi shoh bo'lishni xohlardi. U Xudoni sevar va unga itoat qilar edi.

Bir kuni kechasi Xudo Sulaymondan so'radi: "Senga nima berishimni xohlaysan?". Sulaymon javob berdi: "Men **dono shoh** bo'lishni va Isroil xalqini odilona boshqarishni xohlayman". Xudo Sulaymonning tanlovidan mammun bo'lib, unga buyuk donolik, boylik, shon-sharaf va uzoq umr berdi.

Shoh Sulaymon **Xudoning uyini** qurishni boshladi. Ko'p odamlar qurilishda yordam berishdi. Ular katta toshlar va chiroyli sadr yog'ochlaridan foydalandilar. Ular butun uyni oltin bilan qopladilar. Ma'bad shovqinlarsiz qurildi, chunki toshlar yerdan olib chiqilgan joyda kesilgandi. Ma'bad qurilishi uchun yetti yil kerak bo'ldi. Va nihoyat, chiroyli **Ma'bad qurib bitkazildi**.

Keyin Shoh Sulaymon barcha odamlar bilan Xudoning uyini muqaddas qilish uchun katta bayram qildi. Ko'plab hayvonlar qurban qilindi. Sulaymon Xudo O'z xalqi bilan bo'lishini va ularga baraka berishini so'rab **ibodat qildi**. Xudo mammun edi. Uning shuhrati yangi ma'badni bulut bilan to'ldirdi.

Xudo Shoh Sulaymonga ko'plab ajoyib ishlarni bajarishda yordam berdi. Uning donoligi,adolati, hukmronligi shuhrati uzoq o'lkalarga yetib bordi. **Shava malikasi** bu mo'jizalarning barchasi haqiqat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun keldi. U ko'p sovg'alar olib keldi va Sulaymon bilan gaplashib, unga turli xil qiyin savollar berdi. Sulayminning donolik bilan bergen javoblarini eshitib, barcha ajoyib ishlarni ko'rib, u shunday dedi: "Men eshitganlarimga ishonmadim. Ammo endi men aytiganidan ancha ajoyibroq narsani ko'rmoqdamman. Sizning xalqingiz baxtli va **Xudo sizni sevadi**, Sulaymon".

Biroq, Shoh Sulaymonning xalqi har doim ham baxtli emas edi va Sulaymon har doim ham yordami uchun Xudoga minnatdorchilik bildirmasdi. Sulaymon xalqini tobora ko'proq **ishlashga majbur qildi**, chunki u tobora ko'proq ajoyib joylari bo'lishini xohladi. Bundan tashqari, Sulaymon ko'plab ayollarni sevib qoldi. U xotinlarini rozi qilish uchun butlarga sig'inishni boshladi. Xudo Sulaymondan norozi edi va u itoatsizlik qilganida unga baraka bermadi.

### SAVOL JAVOB:


1. Sulaymon qanday bo'lishni xohladi: dono yoki boy?  
(Sulaymon dono bo'lishni xohladi)
2. Isroil xalqi ma'badni qoplash uchun nimadan foydalanganlar?  
(Ular ma'badni oltin bilan qoplashdi)
3. Sulaymon har doim Xudoga itoat qilganmi?  
(Yo'q, Sulaymon har doim ham Xudoga ma'qul kelmagan)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egamizga sajda qiling" (Zabur 95:9).

## 25. IKKI SHOH

3 Shohlar 11-14



Shoh Sulaymon yomonlik qilganida, Xudo norozi edi. Xudo payg'ambarga: "Men Sulaymonning o'g'lidan **boshqa shohni** tanlayman. Uning o'g'li Isroiuning faqat kichik bir qismini boshqaradi. Boshqa shoh Isroiuning o'nta qabilasini boshqaradi," - dedi.

Sulaymon vafot etgandan so'ng, uning o'g'li **Raxabom shoh bo'ldi**. Odamlar Raxabomga: "Otangiz bizning hayotimizni qiyinlashtirdi. Iltimos, endi hayotimizni yengillashtiring".

Shoh Raxabom javob berdi: "Uyga boring va uch kundan keyin yana keling". Keyin Raxabom turli odamlar bilan maslahatlashishga qaror qildi. Keksa odamlar: "Xalqni tinglang va mehribon bo'ling. Shunda odamlar sizga yordam berishni xohlashadi". Yoshlar esa: "Odamlarning hayotini yanada qiyinlashtiring," - deyishdi.

Uch kundan keyin odamlar yana kelishdi. Shoh Raxabom **yoshlarning maslahatiga** amal qilib, xalqqa: "Men sizning hayotingizni otam davridagidan ham qiyinlashtiraman," - dedi.

Odamlar xafa bo'lishdi. Isroiuning o'n qabilasi: "Biz Raxabomning shohimiz bo'lishiga yo'l qo'yaymiz. Biz uyga qaytamiz," - deyishti.

Xudo Yerobomni o'nta norozi qabilaga yangi shoh etib sayladi. Faqat ikki qabila qoldi va Quddusda yashagan shoh Raxabomga xizmat qildi.

Endi shoh **Yerobomning** odamlarida Xudoga sajda uchun ma'bad yo'q edi. Shoh Yerobom o'z odamlarini Quddusda Shoh Sulaymon qurgan ma'badga qo'yib yuborishdan qo'rqardi. Keyin Shoh Yerobom juda yomon ish qildi. Odamlar o'z yerlarida sajda qilishlari uchun, u ikkita oltin buzoq yasadi. Bu Xudoga ma'qul kelmadi va u shohni **ogohlantirish** uchun payg'ambarni yubordi. Bu vaqtida shoh Yerobom oltin buqalarning birini yonida turardi. Payg'ambar Egamizning so'zlarini unga yetkazdi: "Yangi shoh hokimiyatga kelganida, uning ismi Yo'shiyo bo'ladi, u Isroiil xalqini butparastlikdan qutqaradi".

Shoh Yerobom payg'ambarni ushiamoqchi bo'ldi, lekin uning qo'li qotib qoldi va uni qimirlatolmadidi. Xudo shunday qildiki, butga atab yasalgan qurbongoh **parchalanib ketdi**. Shoh qo'rqib ketdi va payg'ambardan: "Iltimos, men uchun ibodat qiling," - deb so'radi. Keyin payg'ambar ibodat qildi va Xudo shohning qo'liga shifo berdi, ammo shunga qaramay, Yerobom Xudoning ogohlantirishiga quloq solmadi. U va boshqa barcha odamlar butlarga sajda qilishda davom etishdi. Xudo norozi edi. Shuning uchun Xudo Shoh Yerobomni jazoladi.

### SAVOL JAVOB:

1. Shoh Raxabom qanday odamlarga quloq soldi?

(Shoh Raxabom yoshlarga quloq soldi)

2. Butun xalq Shoh Raxabom bilan qoldimi?

(Yo'q, u bilan faqat ikkita qabila qoldi)

3. Shoh Yerobom nima yomon ish qildi?


(U sajda qilish uchun ikkita oltin buzoq yasadi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Yomonlikdan qayting, yaxshilik qiling" (Zabur 33:15).

## 26. ILYOS-XUDONING ODAMI

3 Shohlar 14-18



Xudo shoh Yeribom va uning oilasini jazolaganiga qaramay, Yeribomdan keyin hukmronlik qilgan shohlar ham **butlarga sajda** qilishda davom etishdi.

Axab ismli bir podshoh juda yovuz va qabih edi. Xudo payg'ambar Ilyosga Shoh Axab bilan gaplashishni buyurdi. Ilyos Axab shunday dedi: "Xudoga sajda qilmaganing uchun, men bu haqda aytmagunimcha, Xudo yomg'ir **yog'dirmaydi**".

Keyin Xudo Ilyosga Axab uni topa olmasligi uchun jilg'a yaqinida yashirinishni buyurdi. Har kuni ertalab va har oqshom Xudo Ilyosga ovqat olib keladigan qarg'alarni yubordi. Ilyos yomg'ir yog'magani uchun **jilg'a** quriguncha undan suv ichdi.

Xudo Ilyosga qayerga borishini aytdi. Ilyos o'sha qishloqqa borib, beva ayoldan ovqat so'radi. Uning ozgina ovqati bor edi, faqat o'zi va o'g'li uchun, lekin u Ilyos bilan bo'lishdi. Xudo shunday qildiki, Xudo yerga yomg'ir yog'dirmaguncha, u yetarli ovqatga ega bo'ldi.

Beva ayolning o'g'li og'ir kasal bo'lib vafot etganida, Ilyos ibodat qildi va Xudo o'g'lini yana tiriltirdi. Keyin beva ayol: "Endi siz Xudoning odami ekanligingizni bilaman," - dedi.

Uch yarim yil yerga yomg'ir yog'maganidan so'ng, Xudo Ilyosga shoh Axab bilan yana gaplashishini aytdi. Ilyos Axabga: "Barcha odamlaringa **Karmil tog'iga** borishni buyur," - dedi.

Shoh Axab itoat qildi. Karmil tog'ida Ilyos shunday dedi: "Endi haqiqiy Xudo kimligini ko'ramiz. Siz hayvonni Baal butiga qurban qilasiz, men esa hayvonni Egamizga qurban qilaman. Qurbongohga olov yuboradigan kishi haqiqiy Xudodir".

Baal payg'ambarlari yosh buzoqni qurbongohiga qo'yishdi va kun bo'yi baland ovoz bilan baqirishdi va o'zlarini yaralashdi. Ammo ularning buti na eshitdi, na ko'rdi va na olov yubordi.

Kechqurun Ilyos: "Mening oldimga Kel," - dedi. O'n ikki toshdan u Xudoga qurbongoh qurdi. Keyin unga o'tin va yosh buzoqni qo'yib: "Unga suv quyying," - dedi. Shunday qilib, odamlar uning ustiga o'n ikki chelak suv quyishdi. Keyin Ilyos ibodat qildi. Xudo osmondan yuborgan olov buzoqni, o'tinni, toshlarni, kulni va suvni yoqib yubordi.

Hamma odamlar: "**Egamiz - Xudodir!**" - deb muk tushib ta'zim qildilar.

Keyin Ilyos buyurdi: "Baalning barcha payg'ambarlarini o'ldiring". Xudo odamlarning butlarga sig'inishini xohlasmadi.

### SAVOL JAVOB:

1. Shoh Axab kimga sig'inardi: Xudoga yoki butga?  
(Shoh Axab butga sig'inardi)
2. Ilyosga jilg'a yaqinida bo'lganida kim ovqat olib kelgan?  
(Qarg'alar Ilyosga ovqat olib kelishgan)
3. Olovni kim yubordi: but yoki Xudo?  
(Xudo osmondan olov yubordi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egamiz - Xudodir!" (3 Shohlar 18:39).

## 27. XUDO SHOH AXABNI JAZOLAYDI

3 Shohlar 18 - 4 Shohlar 9



Baal payg'ambarlari o'ldirilgandan so'ng, Xudo **kuchli yomg'ir yog'dirdi**. Bu hammaning Xudoga minnatdorchilagini uyg'otishi kerak edi.

Ammo Shoh Axabning yovuz va qabih rafiqasi Izabel minnatdor emas edi. Soxta payg'ambarlarning o'limi haqida eshitib, u juda g'azablandi va "Ilyos o'lishi kerak," - deb qaror qildi.

Ilyos qochib, **cho'lida yashirinishga** majbur bo'ldi. Unga shunchalik og'ir ediki, Xudodan o'lim so'radi.

Ammo Xudo Ilyos hali ham U uchun ishlashini qilishini xohladi. Xudo: "Isroilda Baalga hech qachon sajda qilmagan odamlar ko'p," - dedi. Bundan Ilyos o'zini yaxshi his qila boshladi. Xudo unga **Elishay** ismli yigitni tanlashni buyurdi, u unga yordamchi va keyingi payg'ambar bo'lishini aytdi.

Payg'ambar Xudoning amrlarini shohga va odamlarga yetkazadigan odam edi. Ko'p marta payg'ambarlar shoh Axab kabi noto'g'ri ish qilgan odamlarni ogohlantirishgan.

Bir kuni Shoh Axab o'z saroyi yonida **uzumzorni ko'rib qoldi**, unga juda yoqdi. U uni sotib olmoqchi edi va shuning uchun uzumzor egasi Navo'tni uzumzorni sotishga ko'ndira boshladi.

Navo't esa rad etdi: "Men sizga bu uzumzorni sotolmayman, chunki u yillar davomida oilamizning mulki bo'lib kelgan".

Shoh Axab juda g'azablandi va shu qadar xafa bo'ldiki, uyga kelganida u hatto ovqat ham yemadi.

Izabel so'radi: "Nima bo'ldi, Axab?". U unga o'zi yoqtirgan uzumzorni sotib ololmaganini aytdi.

Keyin Izabel juda yomon ish qildi. U Navo't yashagan shahar hukmdorlariga xat yozib, odamlardan Navo'tga tuhmat qilishlarini va keyin uni **toshbo'ron qilishlarini** so'radi. Hukmdorlar hamma narsani Izabel so'raganidek qildilar. Axab Navo'tning o'lganini eshitib, uzumzorni egallash uchun ketdi.

Ammo Xudo sodir bo'lgan hamma narsani bilar edi va Ilyosni shoh Axabni kutib olish uchun yubordi.

Shoh Axab Ilyos bilan uchrashishdan xursand emas edi. U payg'ambarni **dushmani** deb hisoblardi. Ilyos: "Sen yomonlik qilganing uchun Xudo sen va Izabel o'lishingiz kerakligini aytadi," - dedi.

Keyinchalik, Shoh Axab jangda o'ldirildi va Izabel derazadan uloqtirildi. Xudoning aytganlari amalga oshdi.

### SAVOL JAVOB:

1. Izabel qanday ayol edi?  
(Izabel juda yovuz ayol edi)
2. Nega Ilyos qochib yashirinishi kerak bo'ldi?  
(Izabel o'lishi kerakligini aytdi)
3. Kim toshbo'ron qilindi: Ilyos yoki Navo't?  
(Navo't toshbo'ron qilindi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egamiz solihlarni kuzatib turadi, ularning iltijosini eshitadi. Badkirdorlardan esa yuz o'giradi"  
(1-Butrus 3:12).

## 28. ILYOSNING KO'TARILISHI

3 Shohlar 19 - 4 Shohlar 2



Elishay payg'ambarlikka saylanganidan so'ng, u Ilyosning yordamchisiga aylandi. Bir kuni ular **Gilgal** deb nomlangan joyda bo'lganlarida, Ilyos Elishayga: "Men Baytilga borganimda shu yerda qol,"- dedi. Ammo Elishay uni tark etishni xohlamadi. Shunday qilib, ular birgalikda davom etishdi.

Baytilda ba'zi yosh payg'ambarlar Elishaydan: "Bugun Egamiz sizning xo'jayiningizni sizdan olib ketishini bilasizmi?".

"Ha", "**Men buni bilaman,**"- deb javob berdi Elishay.

Keyin Ilyos Elishayga yana Baytilda qolishni taklif qildi, chunki u Yerixoga ketayotgandi. Ammo Elishay: "Yo'q, men sizni tark etmayman,"- dedi. Keyin ular **Yerixoga** birga borishdi.

Yerixodan kelgan yosh payg'ambarlar ham Elishaydan Xudo o'sha kuni xo'jayinini olib ketishini biladimi, deb so'rashdi. Elishay yana javob berdi: "Ha, men buni bilaman".

Yana bir marta Ilyos Elishaydan qolishni iltimos qildi, ammo Elishay uni tark etmadi. Ular birgalikda Iordanning oldiga kelishdi. U yerda Ilyos **chakmoni bilan suvga urdi** va Xudo shunday qildiki, suv ikki tomonga bo'lindi. Ikkala payg'ambar ham quruq yerdan boshqa tomonga yurib o'tdilar.

Endi Ilyos Elishayga savol berdi: "Ko'tarilib ketishdan oldin sen uchun nima qilay?"

Elishay javob berdi: "Sizdagi ruh menga ikki baravar bo'lsin. Iltimos, menga **ruhingizdan** ikki baravar ulush bering."

Ilyos buni faqat Xudo berishi mumkinligini bilar edi. U va'da berdi: "Agar meni osmonga ko'tarilganimni ko'rsang, so'ragan narsangni olasan".

Ular birgalikda bir-birlari bilan suhbatlashib, sayohatlarini davom ettirdilar. To'satdan otlar bilan olovli arava paydo bo'ldi va ularni ajratdi. Elishay Ilyosning **bo'ronda osmonga** ko'tarilganini kuzatdi.

Elishay xitob qildi: "Otam, otam!" Tez orada u Ilyosni ko'ra olmadi.

Elishay Ilyosning chakmonini ko'tarib, Iordan daryosiga qaytib ketdi. U chakmonini suvga urdi va daryoni quruq yeridan kesib o'tdi. Unda eslashga arzigelik narsa bor edi. U buyuk Xudoga xizmat qildi. Elishayni yosh payg'ambarlar kutib olishganda, Ilyosning ruhi unda ekanligini ko'rishdi.

### SAVOL JAVOB:

1. Elishay Ilyosni tark etishni xohladimi?  
(Yo'q, Elishay Iliya bilan borishni xohladi)
2. Elishay Ilyosni olinishini bilarmidi?  
(Ha, Elishay Xudo Ilyosni olib ketishini bilar edi)
3. Ilyos qanday qilib osmonga ko'tarildi?  
(Ilyos bo'ronda osmonga ko'tarildi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egamiz Rabbiyning Ruhi meni qamrab olgan" (Ishayo 61:1).

## 29. ELISHAYNING XIZMATI

4 Shohlar 2-13



Elishay Xudoning payg'ambari edi. Odamlar muammoga duch kelganlarida, ular tez-tez Elishaydan maslahat olish uchun kelishardi. Bir kuni odamlar Elishayga buloqdagi yomon suv haqida shikoyat qilishdi. Elishay ularning bulog'iga tuz tashladi va Xudo suvni ichish va yerni sug'orish uchun **toza qildi**.

Jangdan oldin shoh Elishay bilan maslahatlashish uchun keldi va payg'ambar shohga Xudo aytganlarini yetkazdi. Keyin Xudoning xalqi jangda **g'alaba qozondi**.

Bir beva ayolning ikkita o'g'li bor edi. Bir kishi o'g'illarini undan olib qo'ymoqchi bo'ldi, chunki ayol unga pul berolmagandi. Beva ayolda ozgina yog ' bor edi va Elishay unga qo'shnilaridan juda ko'p idishlarni qarzga olishni, keyin eshikni yopishni va har bir idishga ozginadan yog' quyishni maslahat berdi. Xudo shunday qildiki, barcha idishlarni to'ldirish uchun **yeterli yog ' berdi**. Ayol moyni sotib qarzlarini to'ladi. Unda yana pul ham qoldi. Elishayga itoat qilgani uchun, Xudo unga yordam berdi.

Boshqa bir ayol tez-tez Elishayga ovqat yuborardi. Elishay o'z shahriga kelganida dam olish uchun eri bilan xona tayyorladi. U yerda: to'shak, stol, stul va sham bor edi. Bu odamlar Ilyos payg'ambarga mehribon edilar, shuning uchun **Xudo ularga o'g'il berdi**, chunki ular uzoq vaqt farzandli bo'lмаган edilar. Bola kasal bo'lib vafot etganida, ular bu haqda Elishayga habar berishdi. Elishay ibodat qildi va Xudo bolani yana tiriltirdi.

Oziq-ovqat yetishmaganda va odamlarning ovqatlari yeyishga yaroqsiz bo'lib qolganda, Elishay yegulikka ozgina un tashladi va Xudo bu **taomni mazali qildi**.

Boshqa mamlakatda moxov bilan kasallangan **No'mon** ismli taniqli odam yashardi. Xotinining xizmatkori unga Xudoning payg'ambari haqida gapirib berdi va No'mon Elishayning oldiga keldi. Elishay unga Iordan daryosida yetti marta yuvinishi kerakligini aytdi. No'mon itoat qildi va **shifo topdi**. U payg'ambarga sovg'alar bermoqchi edi, lekin Elishay ulardan voz kechdi, chunki Xudo moxovni No'monning tanasidan olib tashlaganini bilar edi.

Elishay shunday qildiki, temir bolta tasodifan daryoga qulab tushganda, suv yuzida paydo bo'ldi. U ko'p marta odamlarga yordam berdi va ajoyib ishla qildi, chunki Xudo u bilan birga edi. U Xudoni sevdi va butun umri davomida unga xizmat qildi.

### SAVOL JAVOB:


1. Elishay qanday ajoyib ishlarni qildi?  
(To'g'ri javob ko'p)
2. Bir kishi beva ayolning ikki o'g'lini olib ketdimi?  
(Yo'q, Xudo unga pul to'lashga yordam berdi)
3. No'mon qaysi daryoda yuvindi?  
(No'mon Iordan daryosida yuvindi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Egangiz Xudoni ulug'lang" (Yeremiyo 13:16).

## 30. YUNUSNING CHAQIRUVI

*Yunus kitobidan*



Elishay vafot etganidan ko'p o'tmay, Yunus Xudoning payg'ambariga aylandi. Yunus Xudo unga aytganlarini e'lon qildi.

Ammo Xudo Yunusga **Naynavoda** va'z qilishni buyurganida, Yunus itoat qilishni xohlamadi, chunki Naynavo butparastlar yashaydigan dushman zaminidagi katta yovuz shahar edi. Ba'zan bu dushmanlar Isroil bilan jang qilishardi. Yunus ularga va'z qilishni xohlamadi.

Yunus Xudodan qochishga urindi, lekin buni hech kim qila olmaydi, chunki Xudo bizni qayerga borsak ham, nima qilmasak ham ko'rib turadi.

**Yunus Yaffaga borib**, kemaga o'tirdi. U kema tubiga tushib, uxbab qoldi. Kema allaqachon qirg'oqdan uzoqda bo'lganida, Xudo dengizga kuchli bo'ron yubordi. Dengizchilar juda qo'rqib ketishdi. Ular xavfsizroq bo'lishlari uchun narsalarni kemadan uloqtira boshladilar va xudolariga iltijo qildilar. Ammo ularning xudolari ularga yordam bera olmadilar. Kema boshlig'i Yunusni uyg'otdi va: "**Xudoyinga iltijo qil**," - dedi.

Yunus Xudo oldida aybdorligini bilar edi va: "Dengiz va yerni yaratgan Xudoga sajda qilaman," - dedi. Keyin esa u Xudodan qochganini tan oldi. Dengizchilar bundan yanada qo'rquvga tushishdi. "Bo'ronni tinchlantirish uchun nima qilishimiz kerak?" - deb so'rashdi ular.

Yunus ularga uni suvgaga tashlashlarini, shunda dengiz yana tinchanishini aytди. Ammo odamlar Yunusning cho'kib ketishini xohlamadilar va qirg'oqqa qarab eshkak eshishga urinishdi lekin buni qila olmadilar. Keyin Yunus uni suvgaga tashlashlarini aytди. Shundan so'ng, **bo'ron to'xtadi** va ular osmondagи Xudoga sajda qilishdi.

Yunus cho'kib ketmadi, chunki Xudo uni yutib yuborish uchun katta baliqni yubordi. Uch kun davomida Yunus baliq ichida edi. Keyin u tavba qildi. **U ibodat qildi**, Xudoga Unga itoat etishini va'da qildi. Xudo baliqqa Yunusni qirg'oqqa qo'yib yuborishni buyurdi.

Keyin Yunus Xudo xohlagan narsani qila boshladi. U Naynavoga borib, Xudoning kalomini va'z qildi. Shoh va hamma odamlar uni tinglashdi. Ular yomonlik qilishni to'xtatdilar va ularni kechirish uchun **Xudoga iltijo qildilar**. O'sha paytda Xudo ularni jazolamadi. Yunus Xudo barcha odamlarni sevishini va hamma uning amrlarini bajarishini istashini bilib oldi.

### SAVOL JAVOB:

1. Naynavo qanday shahar edi?  
(Naynavo juda shafqatsiz shahar edi)
2. Dengizchilar xudolari ularga yordam bera oladimi?  
(Yo'q, ularning xudolari ularga yordam bera olmadilar)
3. Nega Yunus suvgaga cho'kib ketmadi?  
(Xudo uni yutib yuborish uchun katta baliqni yubordi)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Meni ko'radigan Xudosan" (Ibtido 16:13).

## 31. XUDOGA ITOATKOR IKKI SHOH

4 Shohlar 18-23



Xudoning xalqi yaxshi va yomon shohlarga ega edi. Shoh **Hizqiyoy yaxshi shoh** edi. U yomon shohlar yasatgan butlarni sindirdi. U barcha odamlarning Xudoga ishonishini va Xudoning qonunlariga bo'y sunishini xohladi.

Dushmanlar urush boshlashga urinishganda, Shoh Hizqiyoy tinchlik o'rnatishtga va jang qilmaslikka harakat qilardi. Ammo dushman baribir jang qilish uchun keldi. Keyin Shoh Hizqiyoy barcha odamlarga tinchlikni saqlashlarini va Xudoga **ishonishlarini** aytdi.

Dushman qo'shinining bir qo'mondoni odamlarni Xudoning najotiga ishonmaslikka baland ovoz bilan chaqirdi. Odamlar shoh Hizqiyoga itoat etishdi va javob sifatida bir og'iz so'z aytmadilar.

Shoh Hizqiyoy dushmanlarning so'zlarini eshitgach, **ibodat qildi**. Xudo shohga qo'rmaslik kerakligini aytish uchun payg'ambar Ishayoni yubordi. Xudo shunday qildiki, dushman o'z yurtida urush haqida eshitdi va keyin dushman qo'shini uyiga ketdi.

Keyin dushmanlar yana qaytib kelishlari haqida xat yuborishdi. Shoh Hizqiyoy **xatni ma'badga olib borib**, Rabbiya o'qib berdi. Ishayo yana Xudoning shohiga xabar olib keldi. O'sha kuni kechqurun Xudoning farishtasi dushman qarorgohida ko'plab odamlarni yo'q qildi va qo'shining qolgan qismi uylariga qochib ketdi. Xudo unga ishongan odamlarini qutqardi.

Shoh Hizqiyoy vafotidan keyin butlarga sig'inadigan ikkita yomon shoh bo'ldi. Ulardan keyin **Yo'shiyo shoh bo'ldi**. O'n sakkiz yoshida hukmronlik qila boshladi. U yaxshi shoh edi va payg'ambar shoh Yo'shiyoga shoh Yeribom yasagan ikkita oltin buzoq haqida gapirib berdi. Xudo aytganlari amalga oshdi, shoh Yo'shiyo yer yuzidagi butlardan xalos qilib, **Xudoning uyini tikladi**.

Ko'plab ishchilar ma'badda yana Xudoga sajda qilish uchun uni tiklashga yordam berishdi. Xonalarni tozalash paytida ular yo'qolgan kitobni topdilar. Bu yomon shohlar unutgan Xudoning Qonuni edi. Bir kishi uni shohga o'qib berdi. Shoh Xudoning amrlariga rioya qilishni xohladi va shuning uchun barcha odamlar kelib, Xudoning **Qonunini** tinglashlarini buyurdi.

Keyin odamlar shohga butlarni yo'q qilishga yordam berishdi. Ular Fisih bayramini Xudo buyurganidek o'tkazishti. Shoh Yo'shiyo har doim Xudoning Qonuniga rioya qildi.

### SAVOL JAVOB:

1. Shoh Hizqiyoy kimga ishongan: Xudoga yoki butlarga?  
(Shoh Hizqiyoy Xudoga ishongan)
2. Shoh Hizqiyoy dushmanning maktubini qayerga olib bordi?  
(U uni ma'badga olib bordi)
3. Ma'badda ishchilar nimani topdilar?  
(Ular Xudoning Qonuni bo'lgan yo'qolgan kitobni topdilar)

### ESLAB QOLISH UCHUN MUQADDAS KITOBDAN OYAT:

"Ha, Xudo najotimdir, qorqmasman, U mening umidimdir" (Ishayo 12:2).

## 32. YEREMIYO PAYG'AMBAR VA VOIZ

*Yeremiyo kitobidan*



Xudo o'z xalqining unga bo'ysunishini xohlardi. U odamlarni ogohlantirish uchun **ko'plab payg'ambarlarni yubordi**.

